

“COSCOM” МЧЖ тармоғи PREPAID тизимида уяли радиотелефон алоқа хизматларини кўрсатиш тўғрисида Оммавий Оферта

«COSCOM» масъулияти чекланган жамияти (қискартирилган номи «COSCOM» МЧЖ) “Ucell” савдо белгиси (кейинги матнларда «Компания») Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш Вазирлиги томонидан тақдим этилган 17.12.2018 даги АА 0006634, 17.12.2018 даги АА 0006636, 17.12.2018 даги АА 0006637, 17.12.2018 даги АА 0006638 ҳамда 19.07.2021 даги АА 0007183 сонли Лицензиялари асосида, шу билан бирга «COSCOM» МЧЖ тармоғи PREPAID тизимида уяли радиотелефон алоқа хизматларини кўрсатиш тўғрисидаги мазкур Оммавий Оферта (кейинги матнларда «Оммавий Оферта») шартларини қабул қилган жисмоний шахсларга, Рўйхатга олиш шакли (кейинги ўринларда – “Шартнома”) имзолаш орқали уяли радиотелефон алоқа хизматларини тақдим этади.

1. АТАМА ВА ТАЪРИФЛАР

1.1. Мазкур Оммавий Оферта мақсадларини ифодалашда қуйидаги атама ва таърифлар қўлланилади:

Абонент – уяли радиотелефон алоқа хизматларидан фойдаланиш ва абонентлик рақамини олиш мақсадида Компания билан уяли радиотелефон алоқа хизматини кўрсатиш шартномасини тузган, муомалага лаёқатли (14 - 18 ёшгача бўлган вояга етмаганлар телекоммуникация хизматларига уланишда ота-оналари ёки васийларининг ёзма розилиги асосида мурожаат қилишлари мумкин) бўлган, Компания хизматларидан бевосита фойдаланувчи 18 ёшга тўлган ҳар қандай жисмоний шахс.

Абонент рақами – Шартнома амал қилиш муддати давомида, абонентга оператор томонидан ажратиладиган, абонент томонидан фойдаланиладиган, Компания тармоғига уланган абонент қурилмаси ва бошқа абонент қурилмалари билан уланишда идентификацияланадиган рақам.

Абонент қурилмаси – Абонент мулки бўлган Компания тармоғига боғланадиган ва у орқали узатиладиган ёки қабул қилинадиган сигналларни қайта ишлаш учун мўлжалланган техник восита. Абонент қурилмаси Ўзбекистон Республикасида амал қилаётган стандартларга мувофиқ, ускунанинг ушбу турига қўйиладиган белгиланган техник талабларга жавоб бериши керак.

Абонент тўлови – Абонентинг маълум (ҳисоб-китоб қилинадиган) вақт даври (ой, чорак, йил ва б.) учун тўловлари суммаси ҳақида олинган хизматлар ҳажмига боғлиқ бўлмаган доимий миқдор ҳисобланадиган хизматларга ҳақ тўлаш.

Компания веб-сайти – Компаниянинг Интернет тармоғидаги www.ucell.uz электрон манзилида жойлаштирилган ахборот ресурси.

Дилер - Компания номидан абонентларга хизмат кўрсатиш бўйича Компания билан шартнома тузган юридик шахс.

Абонент шахсини тасдиқловчи ҳужжатлар:

- амалдаги турар жойи бўйича рўйхатдан ўтганлиги ҳақидаги ёзув киритилган ёхуд

алоҳида турар жой қайд этилган варақа тақдим этилган, ЖШШИР кўрсатилган, Ўзбекистон Республикаси фуқаролик паспорти;

- чет эл фуқароси паспорти;
- офицер гувоҳномаси, ҳарбий йўлланма (билет) + № 33 формаси (шартнома бўйича хизмат ўтаётган шахслар ва ҳарбийлар учун);
- аккредитациядан ўтганликни тасдиқловчи карта (дипломатик ваколатхоналар ва топшириқ ўтаётган ходимлар учун);
- фуқаролиги бўлмаган шахслар учун яшаш ҳуқуқини тасдиқловчи ёки хорижга чиқувчи, амалдаги турар жойи бўйича рўйхатдан ўтганлиги ҳақида ёзув киритилган ёхуд алоҳида турар жой қайд этилган варақа тақдим этилган ҳужжат;
- фуқаролиги бўлмаган шахснинг амалдаги турар жойи бўйича рўйхатдан ўтганлиги ҳақида ёзув киритилган ёхуд алоҳида турар жой қайд этилган варақа тақдим этилган гувоҳномаси;
- янги намунадаги миллий ҳайдовчилик гувоҳномаси;
- Ўзбекистон Республикаси ID-картаси.

Юқорида кўрсатилган барча ҳужжатлар бир бирининг ўрнини босиши мумкин.

Тарификация бирлиги – кўрсатиладиган хизматларга, Компания томонидан белгиланган тарификация тизимида боғлиқ бўлган тўлов бирлиги.

Тўлов картаси – пластик карта шаклида ёки компания томонидан белгиланадиган бошқа шаклда, махфий код, ҳимоя қатлами бўлган, унда кўрсатилган миқдор/номинал қиймати билан абонентга, абонентнинг шахсий ҳисобини активлаштириш имкониятини берувчи тўлов воситаси.

Йирик авария – маълум бир административ ҳудудда уяли радиотелефон алоқа хизматлари кўрсатилиши тўхталишига олиб келадиган авария ҳолати.

Контент – Абонент сўрови асосида, ахборот, кўнгилочар ёки бошқа мазмунга эга бўлган, SMS, GPRS орқали олинган матнли ёки мультимедиа маълумотлари.

Контент-провайдер – тижорий фаолият асосида, Компания тармоғи орқали Абонентларга Контент хизматларини кўрсатувчи юридик шахс. Контент-провайдерлар ва улар кўрсатадиган Контент хизматлари рўйхати Компания Веб-сайти ҳамда Контент-провайдерларнинг вебсайтларида мавжуд.

Контент-хизматлар — Компания тармоғи орқали тақдим этиладиган қўшимча хизмат тури бўлиб, у Абонентга Абонент рақамининг шахсий ҳисобварағидаги маблағлар ҳисобидан пуллик асосда ахборот, кўнгилочар ва бошқа материалларни олиш имкониятини беради.

Конференц-алоқа – Учта ва ундан ортиқ абонентга бир вақтда телефон орқали мулоқот қилиш, суҳбат пайтида абонентларнинг ҳар бири билан навбатма-навбат уланиш ёки қолган иштирокчиларнинг суҳбатдаги алоқасини узмай, биргаликдаги суҳбатда ўз иштирокини тўхтатиш имконини берувчи хизмат.

Шахсий ҳисобварақ – Компаниянинг биллинг тизимидаги аналитик ҳисоб реестри бўлиб, у Шартномага мувофиқ Абонент томонидан хизматлар учун тўлов сифатида киритилган пул маблағларининг тушуми ва сарфи, шунингдек кўрсатилган Хизматлар ҳажмини ҳисобга олиш учун мўлжалланган.

Компания офиси — Абонентлар ахборот-маълумот хизматларини олишлари, мобил алоқа хизматларини кўрсатиш шартномаларини тузишлари ва хизматларини бошқа турларини олишлари мумкин бўлган жисмоний ва юридик шахсларга хизмат кўрсатувчи, Компаниянинг ҳар қандай расмий офиси.

Оператор Донор - телекоммуникациялар тармоғидан абонент рақами кўчириладиган мобил алоқа оператори.

Оператор Реципиент - тармоғига абонент рақами кўчириладиган мобил алоқа оператори.

ЖШШИР – (Ўзбекистон Республикаси жисмоний шахсини шахсий идентификация рақами) аниқлаш тартибига мувофиқ жисмоний шахсининг шахсини тасдиқловчи ҳужжат бўйича аниқлаш мумкин бўлган ва 14 рақамдан иборат шахсий идентификация рақами.

Прайс варақалар – Компаниянинг асосий хизматлари рўйхатини ўз ичига олган, уларнинг шартлари ва/ёки қисқа тавсифлари ва жорий давр учун қиймати кўрсатилган ва Компания веб-сайтида жойлаштирилган ахборий маълумот берувчи ҳужжат.

Дилерлик хизмат кўрсатиш пункти - дилер томонидан абонентларга хизмат кўрсатиш учун ташкил этиладиган ва фойдаланиладиган хизмат кўрсатиш пункти.

Рўйхатга олиш шакли – Шартноманинг ажралмас қисми саналган, абонентлик рақами, Абонент томонидан аввалроқ танланган тариф режаси кўрсатилган, абонент ҳақидаги маълумотларни ўз ичига олган ва Оммавий Офертанинг барча шартлари Абонент томонидан тўлиқ ва сўзсиз қабул қилинишини тасдиқловчи, Компания томонидан белгиланган намунадаги шакл.

Роуминг – абонент бир мамлакатда ёки бошқа мамлакатнинг уяли алоқа оператори хизмат кўрсатиш зонасида бўлганида, бир уяли алоқа операторига бошқа мобил алоқа операторлари тармоғидан фойдаланиш имконини берувчи хизмат.

Компания тармоғи – Абонентга уяли радиотелефон алоқа хизматларини овоз, маълумот, расм, видео ва бошқа шаклдаги сигналларни узатиш ва қабул қилишни таъминловчи техник воситалар мажмуи.

Тарификациялаш – Компаниянинг турли хизматлари учун тўлов миқдорини белгилайдиган ставкалар тизими.

Тариф режаси – Компания томонидан абонентларга ёки абонентларнинг маълум гуруҳига ёки маълум бир чекланган ҳудудда бир ёки бир нечта хизматлардан фойдаланишни тақдим этадиган, нархлар ва техник маълумотлар мажмуи.

Компания хизматлари — Ucell савдо белгиси остида тақдим қилинадиган уяли радиотелефон алоқа хизматлари, мобил Интернет тармоғидан фойдаланиш, шунингдек Компания тармоғи орқали олинadиган, узатиладиган, қайта ишланадиган ахборотнинг бошқа турларини тақдим этиш фаолияти маҳсули.

Хизмат кўрсатиш зонаси – Компания, лицензия шартномаси асосида уяли радиотелефон алоқа хизматларини кўрсатиш ҳуқуқига ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан белгиланган шартларга мувофиқ хизматлар сифатини таъминлаш учун техник имкониятларга эга бўлган ҳудуд.

Фрод – ахборот технологиялари соҳасида фирибгарликнинг тури, хусусан, рухсат берилмаган ҳаракатлар ва алоқа тармоғида хизматлар ва ресурслардан ноқонуний фойдаланиш.

КРМБ — Кўчирилган рақамларнинг марказлаштирилган базаси — мобил алоқа тармоқларида кўчирилган абонент рақамлари ҳақидаги маълумотларни ўз ичига олган маълумотлар базасини бошқарадиган аппарат-дастурий комплекс.

Шлюз – Мобил алоқа тармоқлари ва телекоммуникацияларнинг бошқа тармоқлари ўртасида, халқаро трафикни ўтказиш ва фойдаланиш мақсадида, ўрнатилган хавфсизлик тизимларини четлаб ўтган ҳолда, телекоммуникация тармоғига сервер ёки бошқа ускуна орқали, ноқонуний (рухсатсиз) уланувчи, Компания тармоғи ва бошқа алоқа тармоқлари ўртасида овозли ва/ёки овозсиз ахборот ўтказилишини амалга ошириш имконини берувчи (жумладан мобил алоқа, кўчмас (стационар) алоқа, маълумотлар узатиш ва бошқалар орқали) ва/ёки учинчи шахсга Компания тармоғидан фойдаланиш имконини берувчи GSM, SMS, IP аппарат дастурий восита.

eSIM — Абонент қурилмасига ўрнатилган, анъанавий жисмоний SIM-карта вазифаларини бажарувчи дастурий-аппарат виртуал идентификация модули. У Абонент қурилмасини идентификация қилиш, унинг мобил тармоққа уланишини таъминлаш ҳамда Абонент рақамини рухсатсиз фойдаланишдан ҳимоя қилиш вазифаларини бажаради. eSIM тармоғига уланиш ва профилни юклаб олиш фақат eSIM фаоллаштириш коди (QR-код)ни сканер қилиш ёки уни қўлда киритиш орқали амалга оширилади.

eSIM - ни фаоллаштириш коди (шу жумладан eSIM QR-коди) — Компания томонидан генерация қилинадиган ноёб ҳарф-рақамли код ёки унинг матрицали штрих-код (QR-код) кўринишидаги график тасвирidir. У ўз ичига eSIM модулини масофадан юклаб олиш ва фаоллаштириш учун зарур бўлган шифрланган маълумотларни қамраб олади. Мазкур код Абонентнинг қатъий махфий маълумоти ҳисобланади, Абонент рақамига кириш калити сифатида эътироф этилади ҳамда ҳукукий жиҳатдан SIM-картанинг жисмоний ташувчисини топширишга тенглаштирилади.

GPRS - General Packet Radio Service. GSM тармоқларида қўлланиладиган интернетпротокол бўйича маълумотларни ўтказиш технологияси. GPRS маълумотларни пакет режимида ўтказиб, хизмат учун тўлов GPRS -сессиянинг давомийлигига боғлиқ бўлмаган ҳолда, юборилган ва олинган маълумотларнинг ҳажмига пропорционал равишда ундирилади.

IMEI коди (International mobile Equipment Identifier) ёки халқаро ўзига хос идентификация коди- 15 рақамдан иборат бўлган ва GSMA томонидан ажратиладиган, шунингдек, тармоқда GSM/UMTS/LTE стандартларида ишловчи мобил алоқа абонент қурилмасини идентификацияловчи рақам.

MNP (Mobil Number Portability) абонент рақамининг кўчиб ўтиши - мобил алоқа хизматларини кўрсатиш шартномаси асосида донор томонидан абонентга ажратилган абонент рақамини бошқа мобил алоқа оператори (реципиент) билан янги шартнома тузишда сақлаш ва ундан фойдаланиш учун амалга ошириладиган ташкилий-техник тадбирлар мажмуи.

PIN - Personal Identification Number. Уяли алоқа тармоғи абонентини идентификациялаш учун қўлланиладиган код. Одатда тўрт рақамдан иборат бўлади. SIM-картага боғланган, лекин абонентнинг хоҳишига биноан телефон менюси ёрдамида

ўзгартирилиши мумкин. Агарда абонент ўз телефонидаги тегишли функцияни мустақил равишда ўчирмаган бўлса, телефон ёқилганда PIN сўралади.

PUK - Personal Unblocking Code ёки SIM-карта блокланган ҳолатда (масалан, PIN-код бир неча марта нотўғри киритилганда) уни блокдан чиқариш учун мўлжалланган код. **PUK** SIM-картага бириктирилган бўлиб, Компания билан шартнома тузилганда берилади.

SIM-карта – Ичига микросхема ўрнатилган, олинувчи идентификация модули, унинг ёрдамида абонент қурилмасини идентификация қилиш, унинг мобил алоқа тармоғидан фойдалана олиш, шунингдек, абонент рақамидан рухсатсиз фойдаланишдан ҳимоя қилиш таъминланади.

SMS қисқа матнли хабар - Short Message Service, — Қисқа хабарлар маркази орқали алоқа абонентларига қисқа матнли хабарларни узатиш ва қабул қилиш учун мўлжалланган хизмат.

Face ID - одамнинг юз шакли ҳажмини сканерлаш. Тизим қуйидаги мақсадларда қўлланилади:

- Абонент шахсини тасдиқлаш (аутентификация);
- Абонент шахсининг ҳақиқийлигини тасдиқлаш (верификация);
- қонунчиликда назарда тутилган бошқа ҳолатларда шартномалар тузишда, агар қонунчилик ёки томонлар келишувига кўра ҳужжатни шахсан имзолаш талаб этилса, томон электрон рақамли имзо орқали тасдиқлаш тартибини бажарган бўлса, электрон ҳужжат имзоланган деб ҳисобланади. Face-ID розиликни ифодаловчи ҳамда ҳужжатни имзолаган шахсни идентификация қилиш ва аутентификация қилиш имконини берувчи имзо ва электрон тасдиқ сифатида тан олинади.

2. ОММАВИЙ ОФЕРТА ПРЕДМЕТИ.

2.1. Компания, танланган Тариф режаси ва алоқа Хизматларини кўрсатиш шартларига мувофиқ тарзда Абонентга уяли радиотелефон алоқа хизматларини кўрсатиш жавобгарлигини ўз зиммасига олади. Абонент эса, Компания веб-сайтида эълон қилинган ва мазкур Оммавий Офертада кўрсатилган, шартлар ва тартиблар асосида тўловни ўз зиммасига олади.

2.2. Ушбу Оммавий Оферта барча Абонентларга нисбатан бир хил кучга эга бўлиб, Абонент билан аввалроқ тузилган МЧЖ «COSCOM» тармоғида уяли радиотелефон алоқа хизматларини PREPAID тизимида тақдим этиш учун Шартнома ўрнини эгаллайди. Абонентларга алоқа Хизматларини кўрсатиш, мазкур Оммавий Оферта, Компания веб-сайтида тақдим қилинган вақтдан бошлаб, Оферта шартларига мувофиқ тарзда белгиланади. Бунда, имзолаш/қайта имзолаш учун Рўйхатга олиш шакли шарт эмас. Оммавий Оферта ва Хизматлар шартларига нисбатан норозилик пайдо бўлса, Абонент Оммавий оферта тақдим қилинган кундан бошлаб, 30 (ўттиз) кун давомида Компания веб-сайти орқали, ёзма равишда Оммавий Оферта шартларини қабул қилишдан бош тортиши тўғрисида хабар бериши лозим. Ушбу Оммавий оферта шартларини бажаришдан бош тортиш тўғрисидаги Абонент Аризаси белгиланган муддатда Компанияга тақдим этилмаслиги конклюдент хатти-ҳаракат (Алоқа хизматларидан амалда фойдаланиш) деб қабул қилинади ва ушбу оммавий оферта шартларини Абонент томонидан тўлиқ ҳамда сўзсиз қабул қилинишини англатади.

2.3. Абонент ушбу оммавий оферта шартларини сўзсиз ва тўлиқ қабул қилганда, компания абонентга Рўйхатдан ўтиш бланкида (шакл) кўрсатилган абонент рақамини фойдаланиш учун тақдим этади.

2.4. Бирламчи хизматлар рўйхати:

- Voice*
- SMS*
- GPRS*
- Чақираётган абонент рақамини аниқлаш
- Чақирикни бошқа рақамга йўналтириш
- Конференц-алоқа
- Қўнғироқларни тақиқлаш
- Чақирикни кутиш /ушлаб туриш
- Ucell Roaming
- Менга қўнғироқ қил
- Қўшимча контент-хизматларни блоклаш

*компания ускуналари даражасида деактивация қилинмайдиган асосий хизматлар.

Абонент, ўз хоҳишига кўра, USSD, SMS йўли билан ёхуд Компания офисларига мурожаат қилган ҳолда ёки Компания томонидан таклиф қилинган бошқа усул билан Компания томонидан тақдим этиладиган бошқа хизматларга уланиши ва аксинча ўчириши мумкин.

2.5. Компания томонидан тақдим этиладиган Хизматлар тўғрисидаги барча долзарб маълумотлар, шу жумладан тарифлар, Хизматларни тақдим этиш тартиби ва шартлари, тақдим этиладиган Хизматлар рўйхатининг ўзгариши ҳамда хизмат кўрсатиш ҳудуди ҳақидаги маълумотлар Компаниянинг Веб-сайтида жойлаштирилган.

3. ТОМОНЛАРНИНГ ХУҚУҚЛАРИ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ

3.1. Компания қуйидаги ҳуқуқларга эга:

3.1.1. Бир томонлама тартибда Оммавий Офертани, Рўйхатга олиш шакли (бланкини), уяли радиотелефон алоқа хизматлари ва тарификацияларни тақдим қилиш тартиб ва шартларини ўзгартириш.

3.1.2. Абонент томонидан Шартнома шартлари бажарилмаганда, хизматлар тақдим қилишни чеклаш ёки тўхтатиб қўйиш, шу билан бирга:

3.1.2.1. Абонент томонидан Компанияга, шунингдек бошқа абонентларга ва/ёки учинчи шахсларга Хизматлардан фойдаланиш орқали зарар етказилган ҳолларда, жумладан, лекин қуйидагилар билан чекланмаган ҳолда: мавжуд бўлмаган тўлов карталарини фаоллаштиришга бир неча марта уриниш; Компания билан ёзма равишда келишмасдан абонент рақамидан лотереялар, овоз беришлар, танловлар, реклама кампаниялари ва сўровлар ўтказиш учун фойдаланиш; спам-хабарлар юбориш, оммавий SMS-тарқатишлар амалга ошириш, фирибгарлик ҳаракатларини содир этиш, шунингдек Компаниянинг ускуналари ва алоқа

қурилмалари ишлаш қобилияти бузилишига олиб келувчи бошқа ҳаракатларни амалга ошириш ҳолларида.

3.1.2.2. Компания томонидан (мустақил равишда ёки ваколатли органлар ёхуд бошқа алоқа операторларининг хабарлари асосида) Абонент томонидан халқаро трафикдан ноқонуний фойдаланиш ва/ёки Компанияни хабардор қилмасдан Компания тармоғида GSM-, IP- ёки SMS-шлюзлардан фойдаланиш ҳолатлари аниқланганда, шу жумладан Компания тармоғида ноқонуний ҳаракатларни амалга ошириш учун қўлланиладиган махсус ускуналар ва/ёки дастурий таъминотдан фойдаланилган ҳолларда.

3.1.2.3. Абонентнинг Шахсий ҳисоб рақамида Хизматлардан фойдаланиш учун етарли пул маблағлари бўлмаган ҳолатларда.

3.1.2.4. Агар абонент томонидан танланган хизматларнинг таърифланишига мувофиқ, Компания белгиллаган муддат ичида, абонент пуллик ҳаракатлар (абонентнинг шахсий ҳисоб рақамидан пул маблағларини ечиб олишга сабаб бўла оладиган, абонент қурилмаси ёки тизим орқали барча ҳаракатлар) амалга оширмаган бўлса.

3.1.2.5. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларида кўрсатиб ўтилган бошқа ҳолатларда.

3.1.3. Хизматлар кўрсатилишини чиқиш қўнғироқлари (фавқулодда хизматлар рақамларига қўнғироқлар ҳамда Абонент блокланган ҳолатда ҳам бепул фойдаланиш мумкин бўлган, телекоммуникация хизматларини кўрсатиш қоидаларида белгиланган рақамлардан ташқари), кириш қўнғироқларини, SMS, GPRS ва Абонентнинг бошқа пуллик, бепул хизматларини блоклаш йўли билан қисман ёки бутунлай тўхтатиш ҳуқуқига эга:

- абонентнинг шахсий маълумотларининг унинг шахсини тасдиқловчи актуал ҳужжатга тўғри келмаслиги;

- компанияда Абонентнинг шахсини тасдиқловчи ҳужжат нусхалари ва/ёки Абонентлик рақами уланишида имзоланадиган ҳужжатларнинг асл нусхалари мавжуд эмаслиги;

- компаниянинг ички ҳужжатлари билан назарда тутилган бошқа вазиятларда.

Абонентнинг блокланган ҳолатга ўтказилишида, Абонентга тегишли SMS -хабар юборилади. Бунда, Абонент тегишли SMS -хабар олган кундан бошлаб 10 (ўн) иш куни давомида ўз шахсий маълумотларини янгилаш учун Компания офисларига мурожаат қилиши ёки Компания расмий веб-сайтида «Шахсий маълумотларини янгилаш» хизмати орқалик ўзининг шахсий маълумотларини актуализациялаши зарур. SMS -хабар фақатгина маълумот етказиш хусусиятига эга ва унинг мавжуд эмаслиги/қабул қилинмаслиги Абонентни ушбу Оммавий Офертанинг **3.4.7** бандида кўрсатилган шартларни бажаришдан озод этмайди. Абонент блокланган ҳолатга ўтказилгани ҳақидаги SMS-хабарларни Абонент олмаганлиги учун Компания Абонент олдида жавобгар бўлмайди.

3.1.4. Компания шартнома тузилган кундан бошлаб 31 кун ичида чиқувчи (фавқулодда вазиятлар ва маълумотлар олиш бундан мустасно) қўнғироқлар, SMS, GPRS ва/ёки бошқа пуллик/роуминг хизматлари амалга оширмаган, шахсий ҳисоб рақамини тўлдирмаган тақдирда, шартномани бир томонлама бекор қилишга ҳақлидир.

3.1.5. Зарурият туғилганида, Абонент рақамини ўзгартиришдан камида 10 (ўн) кун олдин Абонентга олдиндан хабар берган ҳолда, Абонентлик рақамини ўзгартириш.

3.1.6. Компания ва учинчи шахслар номидан реклама, ахборот ва сервис хусусиятига эга SMS-хабарлар ҳамда IVR қўнғироқларини юбориш.

3.1.7. Компания ўз хизматларини, шунингдек ҳамкорлари билан биргаликда кўрсатиладиган хизматларни тарғиб қилиш мақсадида турли хил маркетинг кампаниялари, акциялар, дастурлар, ютуқли ўйинлар ва бошқа тадбирларни ўтказиши мумкин. Улар бўйича батафсил шартлар / қоидалар / оферта Компания танловига кўра Веб-сайтда, Компаниянинг мобил иловасида, Компания офисларида, Компания дилерларининг сотув нуқталарида ёки ҳамкорларнинг ахборот ресурсларида / оммавий ахборот воситаларида жойлаштирилади.

3.1.8. Компания қуйидаги ҳолларда абонентга абонент рақамини бошқа уяли алоқа оператори тармоғига ўтказишни рад этишга ҳақли:

- Абонент рақамини кўчириш пайтида Абонентда Шартнома бўйича қарздорлик мавжуд бўлса;
- Абонентнинг шахсий маълумотлари Абонент шахсини тасдиқловчи амалдаги ҳужжатдаги маълумотларга мос келмаса;
- Абонент рақами блокланган ҳолатда бўлса;
- Абонент томонидан Шартнома бўйича бажарилмаган мажбуриятлар мавжуд бўлса.

3.1.9. Абонентга «Мобил аванс» ва/ёки «Интернет аванс» хизматларини тақдим этиш, уларнинг амал қилиш муддати Компания томонидан белгиланади. Кўрсатилган муддат тугагач, Компания қўшимча розилик олмасдан Абонентнинг шахсий ҳисобидан қарздорлик суммасини тўлиқ ҳажмда автоматик тарзда ҳисобдан чиқариш ҳуқуқига эга. Агар Абонентнинг шахсий ҳисобида маблағ етарли бўлмаса, ҳисобдан чиқариш манфий баланс (қарздорлик) шакллантириш орқали амалга оширилади.

3.1.10. Компания Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ тарзда бошқа ҳуқуқларга эга бўлиши мумкин.

3.2. Абонент қуйидаги ҳуқуқларга эга:

3.2.1. Амалдаги Прайс-варақларда ва/ёки компаниянинг ахборот материалларида кўрсатилган тартиб-қоидаларга мувофиқ фойдаланиладиган хизматлар рўйхатини ўзгартириш.

3.2.2. Компанияга Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ тарзда Шартноманинг бажарилиши устидан шикоятлар юбориш.

3.2.3. Абонентнинг Компания олдида Шартнома бўйича бажарилмаган мажбуриятлари мавжуд бўлмаган ҳолда, Компания томонидан ўрнатилган тартибда Шартномани бошқа шахсга расмийлаштириш.

3.2.4. Компаниядан ҳамда Компания томонидан мазкур Офертанинг 3.1.6-бандига мувофиқ юбориладиган учинчи шахсларнинг реклама, ахборот ва сервис SMS-хабарлари ҳамда IVR-қўнғироқларини олишдан USSD-сўровни териш ёки Компания офисларига ёзма ариза тақдим этиш орқали воз кечиш. Бунда реклама, ахборот ва сервис SMS-хабарларини олишдан воз кечиш Компания томонидан 3.3.9-бандига кўрсатилган ҳолларда юбориладиган SMS-хабарларни олишни чекламайди.

3.3. Компаниянинг мажбуриятлари:

3.3.1. Шартноманинг амал қилиш муддати давомида вақтинчалик фойдаланиш учун Компания мулки ҳисобланган Абонент рақамини, шунингдек SIM-карта/eSIM фаоллаштириш

кодини Абонентга тақдим этади. Тармоққа уланиш нархи SIM-карта/eSIM фаоллаштириш коди нархини ўз ичига олади. Абонент ва SIM-карта/eSim рақамлари рўйхатга олиш шаклида (бланкида) кўрсатилади.

3.3.2. Шартнома тузилиб ва Абонент томонидан бирламчи тўлов амалга оширилгандан сўнг, Шартномага асосан Абонентга 1 (бир) иш куни давомида хизматлар тақдим этиш.

3.3.3. Тўлов мавжуд бўлган ҳолда Абонентга, у танлаган рўйхатга мувофиқ, амалдаги Шартнома, тарификациялаш ва Компаниянинг нархларига асосланган ҳолда, хизматларни кўрсатиш.

3.3.4. Абонент белгиланган тартибда рақам кўчириш хизматидан фойдаланганда абонент рақамининг (MNP) Донори ёки Реципиент бўлиш.

3.3.5. Абонентларга уяли радиотелефон алоқа тармоқларида абонент рақамларини кўчириш (MNP) шартлари тўғрисида маълумот тақдим этиш.

3.3.6. Реципиент ва Абонент ўртасида шартнома бекор қилинган тақдирда, ЎЗР қонунчилигида белгиланган муддатда кўчирилган рақамни Донорга қайтариш.

3.3.7. Абонент рақамини кўчириш (MNP) имконияти КРМБ томонидан тасдиқланганидан сўнг Шартномани бекор қилиш ва барча турдаги хизматларни блоклаш, шунингдек Контент-провайдерлар билан ҳамкорликда тақдим этиладиган хизмат ва сервисларни, жумладан SMS-хабар бериш хизматларини (Uzcard, HUMO ва бошқалар) ва ҳоказоларни ўчириш.

3.3.8. Абонентни Шартнома шартлари, кўрсатиладиган хизматлар рўйхати, хизматларни кўрсатиш тартиби ва шартлари ҳамда тарифлар ўзгаришлари ҳақида Компания танловига кўра Веб-сайтта ёки оммавий ахборот воситалари орқали SMS-хабар тарзида эълон қилиб, улар жорий этилганига қадар камида 15 (ўн беш) кун олдин хабардор қилади. Абонент ушбу хабарларни Компанияга боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра олмаган тақдирда, Компания Абонентнинг ўз вақтида танишмаслиги учун жавобгарликни олмайди ва бу борада даъволарни қабул қилмайди.

3.3.9. Абонент билан Шартнома бекор қилинишида, Шартномада кўзда тутилган тартибда ва шартларда, ўзаро ҳисоб китобларни амалга ошириш.

3.4. Абонентнинг мажбуриятлари:

3.4.1. Шартнома шартларига амал қилиш.

3.4.2. Мустақил равишда Компаниянинг расмий маълумотлари билан, шу билан бирга, Компаниянинг веб сайтида тақдим қилинаётган хизматлар рўйхати, тарификация, хизматларни кўрсатиш тартиби, шартлари ва хизмат кўрсатиш доираси ўзгариши билан боғлиқ маълумотлар билан танишиш.

3.4.3. SIM-карта/eSIM фаоллаштириш коди йўқолганлиги ҳақида дарҳол Компаниянинг расмий офисларидан бирига ёзма ариза билан мурожаат этиш йўли билан ёки Компания томонидан назарда тутилган бошқача усул билан хабар бериш. Абонент томонидан белгиланган қоидага амал қилинмаганда, Компания томонидан Абонентдан ёзма аризани қабул қилинмагунигача, Абонент йўқотган SIM-карта/eSIM фаоллаштириш кодидан фойдаланган ҳолда кўрсатилган Хизматлар учун тўловни амалга ошириш бўйича жавобгарликни ўз зиммасига олади.

3.4.4. Такдим этилган Абонент рақам, лотереялар, викториналар ташкил этиш ва ўтказиш, реклама тарқатиш, сотилган товарлар (хизматлар, ишлар) учун пул йиғиш, ҳомийлик, моддий ёрдам кўрсатиш ва Шартнома предмети сифатида кўрсатилмаган бошқа мақсадларда, учинчи шахс ҳуқуқларининг бузилиши, шунингдек Компания алоқа ускуналари ва қурилмаларининг ишлашига таъсир кўрсатувчи ҳаракатлар учун фойдаланилмаслиги лозим. Агар юқорида кўрсатилган мақсадларда Абонент рақамидан фойдаланиш аниқланган ва аниқ маълумотлар билан тасдиқланган бўлса, ёки юқоридаги ҳаракатларнинг аломатлари мавжуд бўлган тақдирда Компания Ўзбекистон Республикаси амалдаги қонунлари ва янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикасининг амалдаги солиқ кодекси асосида давлат органларига хабар бериш ҳуқуқига эга.

3.4.5. Абонент, шахсий фойдаланиш ускуналари ҳисобланмаган, бошқа Абонентларнинг ҳуқуқларини, Шартнома шартларини ва Ўзбекистон Республикаси амалдаги қонунчилигини бузиш орқали Хизматлардан фойдаланишга мўлжалланган шлюзлар ёки бошқа махсус техник мосламалар/дастурлардан фойдаланмаслик, жумладан, учинчи шахсларга алоқа хизматларини шунингдек, ўзга алоқа операторлари, стационар алоқа, интернет/IP-телефония хизматларини ва бошқаларни такдим этиш тақиқланади.

3.4.6. Абонентлар Компания офисларига Хизматлардан фойдаланиш учун мурожаат қилганда, талаб асосида ўз шахсини тасдиқловчи ҳужжатнинг асл нусхаси ёки Компания томонидан белгиланган бошқа ҳужжатларни такдим этади.

3.4.7. Рўйхатга олиш шаклида (бланкида) кўрсатилган шахсий маълумотлар (фамилияси, исми, отасининг исми, доимий яшаш жойи бўйича ёки вақтинча турган жойи бўйича рўйхатга олинганлиги ва паспорт маълумотлари) ўзгарган тақдирда, бу ҳақда Компанияга ушбу ўзгаришлар содир бўлган пайтдан бошлаб 15 кун ичида хабар бериш (Компания офисларига мурожаат қилиши ёки Компания расмий веб-сайти орқалик **«Шахсий маълумотларини янгилаш»** хизмати орқалик ўзининг шахсий маълумотларини актуализациялаши зарур).

3.4.8. SIM-карта/eSIM орқали олинаётган материаллар, маълумотлар, хизматлар ва маҳсулотлардан фойдаланиш билан боғлиқ барча хатарларни ўз зиммасига олиш:

а) интернет тармоғида;

б) уларга кириш Компания тармоғи орқали уланиш ёрдамида амалга ошириладиган контентпровайдерлар.

3.4.9. «Мобил аванс» ва/ёки «Интернет аванс» хизматларидан фойдаланишдан олдин Компания веб-сайтида уларни такдим этиш шартлари, жумладан амал қилиш муддати билан танишиш. Хизматлардан фойдаланилган тақдирда қарздорликни ўз вақтида сўндиришни таъминлаш, шунингдек хизматлар амал қилиш муддати тугагач қарздорликнинг шахсий ҳисоб рақамидан автоматик равишда ечилишига розилик билдириш. Шахсий ҳисобда маблағ етарли бўлмаган ҳолатда манфий баланс юзага келишига йўл қўйиш ва юзага келган қарздорликни тўлиқ ҳажмда қоплаш мажбуриятини олиш.

3.4.10. Ўз номига расмийлаштирилган Абонент рақами, SIM-карта, шунингдек eSIM фаоллаштириш коди (жумладан QR-код)ни учинчи шахсларга бермаслик. Абонент ушбу идентификаторларни бошқа шахсларга такдим этиш улардан фирибгарлик (фрод), киберфирибгарлик, ноқонуний пул ўтказмалари, шахсий маълумотларни рухсатсиз қўлга

киритиш ҳамда бошқа ҳукукбузарликларни содир этиш мақсадида ғайриқонуний фойдаланиш учун шароит яратишини англайди ва бунга розилик билдиради.

4. ҲИСОБ-КИТОБЛАР ТАРТИБИ ВА ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ

4.1. Хизматларга бўлган тарификация Компания томонидан мустақил равишда белгиланиб, Ўзбекистон Республикасининг миллий валютаси – сўмда ўрнатилади.

4.2. Рўйхатдан ўтиш формасини имзолашдан сўнг, Абонент минимал тўловни амалга ошириши зарур (минимал тўлов Рўйхатдан ўтиш формада ва Компаниянинг расмий веб-сайтида кўрсатилган). Хизматлардан фойдаланишни бошлаш учун, Абонент томонидан танланган тариф/хизматлар учун олдиндан тўлов киритилиши керак. Тўлов Абонент томонидан қуйидаги усуллардан бири билан амалга оширилади:

- а)** компаниянинг сотув ва хизмат кўрсатиш офисларида нақд пул тўлови орқали;
- б)** банк пластик картаси орқали;
- в)** тўлов тизимлари, агентлик тармоқлари ва бошқалар орқали;
- г)** тўлов карталарида кўрсатилган қоидаларга мувофиқ, тўлов картасини активлаштириш орқали.

4.3. Хизматларнинг кейинги тўлови Абонент томонидан, Шартноманинг 4.2 бандида кўрсатилган усулларда аванс тўловларни киритиш йўли билан амалга оширилади.

4.4. Агарда Абонент, пуллик/оддий рақамга уланганда, рақамнинг қийматини ёки тариф режани қийматини 24 (йигирма тўрт) соат давомида тўламаган бўлса, Шартнома тузилмаган ҳисобланади ва бир томонлама бекор қилинади.

4.5. PREPAID тизимидаги хизматлар олдиндан тўлов шарти асосида тақдим этилади. Тўлов амалга оширилгач, Компания Абонентга, Компания веб-сайтида кўрсатилган тарификация ва хизматларни кўрсатиш шартларига мувофиқ, Абонентнинг шахсий ҳисоб рақамида маблағ тугагунга қадар бўлган тўлов қийматига тенг хизматларни тақдим этади.

4.6. Шахсий ҳисоб рақамидаги маблағлар Компания томонидан ўрнатилган минимумгача пасайганида, Компания Веб сайтида кўрсатилган шартлар асосида, Абонентнинг хизматлардан фойдаланиш ҳуқуқи чекланади, шу жумладан, хизматдан фойдаланиш вақтида ҳам амалдаги шартларга мувофиқ чекловлар қўлланилиши мумкин. Хизматлардан фойдаланиш ва чеклашнинг бошқа шартлари ҳам компаниянинг веб-сайтида ва/ёки компаниянинг ахборот материалларида кўрсатилган.

4.7. Хизматлардан фойдаланиш чекланганидан сўнг – Абонент рақами блок ҳолатига ўтказилади, Абонентга белгиланган муддат давомида шахсий ҳисоб рақамини тўлдириш ва хизматлардан фойдаланишни тиклаш имконияти берилади. Белгиланган муддат, батафсил, Компания Веб сайтида кўрсатиб ўтилган.

4.8. Хизматлардан фойдаланган сари, Абонент ҳисобидан, хизматларга бўлган амалдаги тарификация томонидан белгиланган қийматлар ечилади. Хизматларга бўлган тарификация Компания томонидан белгиланиб, Компаниянинг Прайс - варақаларида (лист) ва/ёки ахборот материалларида акс эттирилади.

4.9. Ҳисобга олиш, тарификация тизимида техник носозликлар вужудга келган ҳолларда ёки тизимда режали/режадан ташқари ишлар амалга оширилганда, Компания хизматларни кўрсатишдаги носозликлар бартараф қилингандан сўнг тарификация қилиш ҳуқуқини ўзида қолдиради.

4.10. Хизматлар ҳар куни 24 соат давомида, узлуксиз тақдим қилинади, зарур бўлган профилактика ва авария-таъмирлаш ишларининг ўтказилиши бундан мустасно.

4.11. Компания тармоғида юз берган йирик авариялар сабабли хизматларни кўрсатиш тўхтатилган ҳолларда, Компания Абонентни бу ҳақда ҳамда хизматлар қайта тикланишининг тахминий муддатлари ҳақида Компаниянинг Веб-сайтида ёки Компания танлаган бошқа усул билан хабар қилади.

4.12. Компания Абонентга, унинг Шахсий ҳисоб рақамида пул маблағлари мавжуд бўлмаган ҳолда ҳам, Ўзбекистон Республикаси ҳудудида тегишли хизматлар учун ўрнатилган ягона рақамларни териш орқали фавқулоддаги оператив хизматларни бепул ва кечаю - кундуз чақириш имкониятини беради.

4.13. Компания томонидан Шартномага асосланган ҳолда кўрсатиладиган Хизматлар тўғрисидаги қўшимча маълумот, Компаниянинг веб-сайтида, Компания офисларида, Компания дилерларининг савдо нуқталарида, шунингдек Компания танловига кўра оммавий ахборот воситаларида жойлаштирилади.

4.14. Шартнома тузилганда, Абонент Компанияга унинг шахсий ва биометрик маълумотларини Компания хизматларини кўрсатиш мақсадида қайта ишлашга (йиғиш, тизимлаштириш, сақлаш, ўзгартириш, тўлдириш, фойдаланиш, тақдим этиш, тарқатиш, узатиш, шахссизлантириш ва йўқ қилиш) розилик беради.

Абонент шахсий / биометрик маълумотларни уни олиш фактини тасдиқлашга имкон берадиган ҳар қандай шаклда қайта ишлашга розилик беради.

Хизматларни тақдим этиш жараёнида Абонентнинг шахсий / биометрик маълумотларининг бир қисми хизмат кўрсатишнинг узлуксизлиги ва тўғрилигини таъминлаш учун учинчи шахсларга берилиши мумкин.

Компания тармоғи орқали тақдим этиладиган қўшимча хизматларга уланиш учун рўйхатдан ўтиш шаклини имзолаш ва/ёки сўров юбориш орқали абонент Абонентнинг шахсий / биометрик маълумотларини компания томонидан қўшимча хизматлар кўрсатадиган учинчи шахсларга (контент-провайдерлар, тўлов агентлари, тўлов ташкилотлари), шунингдек Компаниянинг ахборот тизимларини техник қўллаб-қувватлайдиган етказиб берувчиларга тақдим этишга розилик беради. Абонент қўшимча хизматлардан узиб қўйилгандан сўнг, илгари узатилган маълумотлар Компания ускунасининг техник хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда тегишли тизимларда сақланиши мумкин

Абонентнинг шахсий маълумотлари (трафик, шахсий ҳисоб маълумотлари, тўловлар, кўрсатилган хизматлар ва сервислар, ҳаракатлар, молиявий маълумотлар ва бошқалар тўғрисидаги маълумотлар) компания томонидан фақат хизматлар кўрсатиш, шунингдек учинчи шахсларга қўшимча хизматлар кўрсатиш учун йиғилади, ишлатилади ва қайта ишланади (кредит ва молиявий рейтинг учун скоринг, тўлов ташкилотлари тизимлари ва бошқалар).

Компания олинган шахсий / биометрик маълумотларнинг махфийлиги ва хавфсизлигини таъминлайди. Уларнинг хавфсизлиги ва махфийлиги компания томонидан Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ кафолатланади.

4.15. Компания абонентларининг шахсий маълумотлари махфийлиги сиёсати Компаниянинг веб-сайтида жойлаштирилган.

4.16. Компания абонентларининг шахсий маълумотларига ишлов бериш Алоқа хизматларини кўрсатиш мақсадида, шунингдек, куйидаги ҳолларда амалга оширилади:

4.16.1. абонент тараф бўлган мазкур оферта шартларини бажариш мақсадида;

4.16.2. Операторнинг қонунчилик ҳужжатларида белгиланган мажбуриятларини бажаришида;

4.16.3. абонентнинг қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида;

4.16.4. Компаниянинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини амалга оширишда.

4.16.5. Компаниянинг хизматлар кўрсатиш, персоналлаштирилган таклифлар тақдим этиш, абонентларга маслаҳат ва техник кўмак кўрсатиш жараёнида статистик, таҳлилий, тижорий ва/ёки технологик мақсадларда.

4.16.6. давлат органларининг сўровларига мувофиқ абонентларни хабардор қилиш мақсадида;

5. МУРОЖААТЛАРНИ КЎРИБ ЧИҚИШ ТАРТИБИ

5.1. Абонентларнинг хизмат кўрсатиш доирасида юзага келадиган саволлари юзасидан, Абонент Компанияга тегишли ариза билан мурожаат қилиши мумкин бўлиб, унинг кўриб чиқилиши амалдаги қонунчилик доирасида ва Компания томонидан ўрнатилган тартибда амалга оширилади.

5.2. Компания томонидан Шартномавий мажбуриятлар бажарилмаганда ёки нотўғри бажарилганда. Абонент ёзма, оғзаки ва/ёки электрон шаклда шикоят қилиш ҳуқуқига эга.

5.3. Телекоммуникация хизматларини кўрсатишни рад этиш, шартномадан келиб чиқадиган мажбуриятларни ўз вақтида бажармаслик ёки лозим даражада бажарилмаслик билан боғлиқ масалалар юзасидан шикоятлар, телекоммуникация хизматлари кўрсатилган, уни кўрсатиш рад этилган ёки ҳисоб тақдим этилган кундан бошлаб 6 ой ичида берилади.

5.4. Абонентларнинг мурожаатлари, агар бошқаси Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида назарда тутилмаган бўлса, мурожаатларнинг рўйхатдан ўтказилганлик санасидан бошлаб, 30 (ўттиз) кундан ошмаган муддат давомида Компания томонидан кўриб чиқилади.

5.5. Абонент мурожаатлари кўриб чиқилиши натижалари ҳақида Компания ёзма, оғзаки ёки электрон шаклда хабар беради (Абонентнинг талабига мувофиқ). Ёзма жавоб почта орқали буюртма хат тарзида ёки электрон почта орқали, шунингдек, жўнатувчини қайд этишни таъминлайдиган бошқа алоқа воситалари орқали юборилади ёки Компаниянинг офисида Абонентга қўл қўйдириб топширилади. Оғзаки жавоб телефон/мобил алоқа орқали тақдим этилади.

6. ФОРС МАЖОР

6.1. Томонлар Шартнома бўйича ўз мажбуриятларини бажармаслик ёки лозим даражада бажармаслик учун жавобгарликдан озод этиладилар, агар бундай бажармаслик Шартнома тузилгандан кейин юзага келган енгиб бўлмас куч ҳолатлари натижасида содир бўлган бўлса. Енгиб бўлмас куч ҳолатлари деганда Томонлар томонидан олдиндан кўриб бўлмайдиган ёки мавжуд воситалар орқали олдини олиш мумкин бўлмаган фавқулодда воқеалар ёки ҳолатлар тушунилади. Бундай «фавқулодда воқеалар ёки ҳолатлар» жумласига қуйидагилар киради, лекин булар билан чекланмайди: ёнғинлар, учинчи шахсларнинг ҳаракатлари (уларнинг айби билан Шартнома бўйича мажбуриятларни бажармаслик ёки лозим даражада бажармаслик юзага келган ҳолларда), табиий офатлар (сув тошқинлари, zilzilalar ва ҳ.к.), ҳарбий ҳаракатлар, Ўзбекистон Республикаси ваколатли давлат бошқаруви органларининг ҳаракатлари ёки норматив ҳужжатлари, шунингдек Томонларнинг оқилона назоратидан ташқари бўлган, Томонлар томонидан олдиндан кўрилмаган ва олдини олиш мумкин бўлмаган бошқа ҳар қандай ҳолатлар.

7. ШАРТНОМАНИНГ АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ. ШАРТНОМАНИ ТУЗИШ, ЎЗГАРТИРИШ ВА БЕКОР ҚИЛИШ ТАРТИБИ

7.1. Шартнома Томонларнинг Рўйхатга олиш бланкини имзолаган пайтдан бошлаб кучга киради ва Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги ва/ёки Шартноманинг шартларига асосланган ҳолда бекор қилингунича амал қилади.

7.2. Шартнома Абонент ва Компания ўртасида Компания офисларида, Компания дилерлари савдо нуқталарида ва мобил илова орқали, юз қисмининг фото/видео тасвирини (Face ID) олиш ёки Рўйхатга олиш шаклини имзолаш орқали тузилади.

7.3. Томонлар Рўйхатга олиш шаклига (бланкига) имзо қўйишда Компаниянинг ваколатли шахси имзоси факсимили тарзида қўйилишига келишадилар.

7.4. Компания Оммавий офертани бир томонлама тартибда ўзгартириш ва/ёки қўшимчалар киритиш ҳуқуқига эга. Оммавий офертага киритилаётган ўзгартишлар ва/ёки қўшимчалар ҳақидаги маълумотлар Компания веб-сайтида Оммавий оферта шартларига киритилаётган ўзгартишлар кучга кириш санасидан камида 15 (ўн беш) календарь кун олдин жойлаштирилади. Бундай ўзгартиш ва қўшимчалар улар киритилган пайтдан эътиборан амал қилади. Абонент киритилган ўзгартиш ва қўшимчаларга рози бўлмаган тақдирда, ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган пайтдан бошлаб 30 (ўттиз) кун ичида Компанияга ёзма ариза юбориш орқали Шартнома шартларини қабул қилишдан бош тортиш ҳуқуқига эга. Ушбу ҳолатда Абонентнинг рози эмаслиги Шартноманинг Абонент ташаббуси билан бир томонлама тартибда, 7.6-бандга мувофиқ бекор қилинишига олиб келади.

7.5. Томонлар Шартномани унинг шартлари бажарилмаган ҳолда, Шартномада кўзда тутилган тартиб ва шартларда бекор қилишлари мумкин.

7.6. Шартнома Абонентнинг ташаббусига биноан бир томонлама тартибда, Абонентнинг ёзма равишдаги, Компания офисларига тақдим қилинган аризаси асосида ва

Абонентнинг шахсини тасдиқловчи ҳужжатнинг аслини тақдим қилган ҳолда бекор қилиниши мумкин.

Бунда Абонент, Шартнома бекор қилинишидан олдин, Шартнома бекор қилиниш санасида кўрсатилган хизматлар қийматини тўлиқ тўлаши шарт.

7.7. Шартнома Компания томонидан бир томонлама тартибда қуйидаги ҳолатларда бекор қилиниши мумкин:

7.7.1. Амалдаги Компаниянинг бошқа маълумот манбаларида, шу жумладан, расмий Веб сайтида кўрсатилган муддат тугаганидан сўнг абонент томонидан шахсий ҳисоб тўлдирилмаса, шунингдек, Компаниянинг расмий Веб - сайтида кўрсатилган муддатдан ортиқ вақт давомида абонент блокланган ҳолатда бўлган тақдирда.

7.7.2. Агарда, Абонент Компания офисига Оммавий Офертанинг 3.1.3 - бандида белгиланган муддатда мурожаат қилмаган бўлса.

7.8. Шартноманинг бекор қилинишида Томонлар ўзларининг барча мажбуриятлари бўйича ўзаро ҳисоб китобларни амалга оширишлари керак. Абонентнинг Шахсий ҳисоб рақамида қолган пул маблағларининг қайтарилиши қуйидаги тартибда амалга оширилади:

7.8.1. Абонент Шахсий ҳисоб рақамида Шартноманинг бекор қилиниши пайтида қолган пул маблағларини Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги томонидан белгиланган муддат давомида талаб қилиш ҳуқуқига эга. Агарда Абонент Компанияга кўрсатилган муддатнинг яқунланишига қадар мурожаат қилмаган бўлса, пул маблағлари қайтарилмайди.

7.8.2. Промо-баланслардан (бонус устамалари) маблағлар, SIM-картани улаш (активлаштириш) учун тўлов, пуллик Абонентлик рақамининг қиймати, шунингдек, Абонент томонидан харид қилинган, лекин активлантирилмаган тўлов Карталарининг қиймати қайтарилмайди.

7.8.3. Пул маблағларининг қолдиғини қайтариш Абонент томонидан шартномани бекор қилиш/шартнома бекор қилинганидан кейин маблағларни қайтариш тўғрисидаги ёзма ариза Компаниянинг ўз офисларида рўйхатдан ўтказилган пайтдан бошлаб 15 иш/банк куни ичида амалга оширилади. Бунда пул маблағларини қайтариш Компания томонидан фақат нақд пулсиз шаклда — Абонентга тегишли банк ҳисоб рақамига ёки банк пластик картасига пул ўтказиш орқали амалга оширилади. Шунингдек, шартнома бекор қилингунига қадар ва рақам терминация қилинмасидан олдин мазкур Абонентга тегишли бўлган бошқа амал қилаётган рақамнинг Шахсий ҳисоб рақамига ўтказиш орқали ҳам амалга оширилиши мумкин.

7.8.4. Абонент рақамини Компания тармоғидан Реципиентнинг тармоғига кўчиришда абонентнинг шахсий ҳисоб варағида сарфланмаган маблағлар аниқланса, ушбу маблағларни қайтариш Компания томонидан Абонентнинг маблағни қайтариш тўғрисидаги ёзма аризаси рўйхатга олинган вақтдан бошлаб, Компания офисларида 30 иш/банк куни ичида амалга оширилади. Бунда, Компания пул маблағларини фақат нақд пулсиз шаклда, банк ҳисоб рақамига ёки Абонентга тегишли банк пластик картасига ўтказиш ёки абонент рақами Компания тармоғидан Реципиентнинг тармоғига кўчирилгунга қадар, Компания билан тузилган шартнома бекор қилинишидан аввал ушбу Абонентга тегишли бошқа Ucell амалдаги рақамининг шахсий ҳисобига ўтказиш йўли билан амалага оширилади.

7.8.5. Пул маблағларининг қайтарилиши Ўзбекистон Республикаси миллий валютаси сўмда, Компания томонидан белгиланган пул маблағларини қайтариш Тартиби ва амалдаги Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ тарзда амалга оширилади.

8. ТОМОНЛАРНИНГ МАЖБУРИЯТЛАРИ

8.1. Ўз мажбуриятларнинг бажарилмаганлиги ёки тегишли тарзда бажарилмаганлиги учун томонлар, Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги ва Шартномада назарда тутилган ҳолларда жавобгар бўладилар.

8.2. Айбдор томон фақат иккинчи томонга етказилган бевосита зарарлар учун жавобгар ҳисобланади. Билвосита зарарлар, маънавий зиён ҳамда қўлдан бой берилган фойда амалдаги қонунчилик тартибида қопланади.

8.3. Компания куйидагилар учун жавобгар саналмайди:

8.3.1. Агар бу Абонент томонидан SIM-карта/eSIM ёки Абонент қурилмасидан нотўғри фойдаланиш натижасида юзага келган бўлса, шу жумладан сифати лозим даражада бўлмаган ва/ёки Компания тармоғи технологияларини қўллаб-қувватламайдиган қурилмалардан фойдаланилганда, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси мувофиқлик сертификатига эга бўлмаган ва/ёки Ўзбекистон Республикасида белгиланган стандартлар талабларига жавоб бермайдиган Абонент қурилмасидан фойдаланилган ҳолатларда хизматлар кўрсатилиши имконияти мавжуд бўлмаслиги мумкин.

8.3.2. Абонентнинг буюртмасига асосланган ҳолда Компания тармоғи орқали учинчи шахслар томонидан тарқатиладиган контентнинг мазмуни ва сифати, тақдим қилинмаганлиги ёки ўз вақтида тақдим қилинмаганлиги.

8.3.3. Абонентнинг, тасодифий, бевосита зарари, билан боғлиқ бўлган эҳтимол зарарлари ҳамда хизматлардан фойдаланишда юзага келадиган бошқа моддий йўқотишлар билан боғлиқ бўлган зарарлар.

8.3.4. Абонентнинг сўровига биноан тақдим қилинган маълумотнинг Абонентнинг шахсий кутган натижаси ва унинг субъектив баҳоларига мос келмаслиги.

8.4. Абонент ўзининг SIM-картаси/eSIM орқали амалга оширилган барча ҳодиса ва ҳаракатлар учун тўлиқ шахсий жавобгар эканлиги ҳақида огоҳлантирилган ҳамда Компания томонидан кўрсатилган Хизматлар учун тўлов мажбуриятини, шунингдек SIM-карта ёки eSIM фаоллаштириш кодини (шу жумладан QR-кодни) учинчи шахсларга бериш билан боғлиқ жавобгарликни ўз зиммасига олади.

eSIM фаоллаштириш кодини (QR-кодни) учинчи шахсларга бериш натижасида унинг ноқонуний схемаларда (шу жумладан телекоммуникация тармоқларига рухсатсиз кириш ва трафикни ноқонуний ўтказишда) ишлатилиши учун жавобгарлик Абонентнинг ўзига юклатилади. Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 155-2-моддаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 278-3 ва 278-7-моддаларига мувофиқ, телекоммуникация тармоқларига ноқонуний (рухсатсиз) кириш учун махсус дастурий ёки аппарат воситаларини тайёрлаш, сақлаш ва улардан фойдаланиш, шунингдек телекоммуникация тармоқларидан фойдаланиш ва халқаро трафикни белгиланган ҳимоя

тизимларини четлаб ўтган ҳолда ўтказиш мақсадида тармоққа ноқонуний (рухсатсиз) кириш учун жавобгарлик белгиланган.

Абонент SIM-карта/eSIM фаоллаштириш кодини йўқотган тақдирда ва бу ҳақда мазкур Оммавий офертанинг 3.4.3-бандига мувофиқ Компанияни хабардор қилган ҳолатлар бундан мустасно ҳисобланади.

8.5. Абонент, абонент рақами ва SIM-карта/eSIM фаоллаштириш коди компания томонидан фақатгина алоқа хизматларини кўрсатиш мақсадида тақдим этилишини тасдиқлайди. Компания телефон алоқасини қабул қилиш/узатиш ва абонент рақамининг ишлашини таъминловчи техник ижрочи ҳисобланади. Абонент банк хизматлари, шу жумладан шартнома доирасида ажратилган абонент рақамига масофавий банк хизматларини улашга оид хавфлар ва Абонентнинг кредит ташкилотларидаги ҳисоб рақамларида нақд пул ўғирланиши ёки номаълум шахслар томонидан SIM–карта/eSIMни фаоллаштириш кодини алмаштириш орқали кредитлар берилишига олиб келиши мумкинлиги ҳақида огохлантирилди ва тушунтирилди. Абонент, абонент рақами билан технологик жиҳатдан боғлиқ бўлган банк хизматларига буюртма бериш тўғрисида қарор қабул қилганда, шу жумладан абонентга операциялар тўғрисида хабар бериш, паролни тиклаш, бошқа ташкилотларда идентификация қилиш тўғрисида қарор қабул қилганда, абонент зарарнинг барча хавфини, кредит ташкилотларидаги ҳисоб варақлардан пул йўқотилиши ва уларнинг йўқолиши учун мустақил равишда жавобгар бўлади ва компанияга зарарни қоплаш, маънавий зарар ва бошқа талабларни қоплаш талабидан воз кечади. Абонент, шунингдек, абонент рақамини турли хил Интернет манбаларига, шу жумладан электрон почта, ижтимоий тармоқ сайтлари, мессенжерлар ва бошқа манбаларга кириш учун идентификатор сифатида ишлатганда компания томонидан етказилган зарар ва бошқа талабларни қоплаш талабидан воз кечади. Ҳисоблар ва хизматлар учинчи шахслар томонидан бузилиши мумкинлиги сабаб, абонентга шартнома бўйича ажратилган абонент рақами билан технологик жиҳатдан боғлиқ бўлган ҳисобларни ва бошқа хизматларни рўйхатдан ўтказиш учун шартнома бўйича ажратилган абонент рақамидан фойдаланиш хавфсиз эмаслиги ҳақида хабар берилади. Абонент тўлиқ жавобгарлик билан, учинчи томон хизматларига буюртма бериши, Интернетда материаллар, маълумотлар, ҳисоблар, хизматлар ва маҳсулотлардан фойдаланиш билан боғлиқ хавфларни ўз зиммасига олади, уларга технологик кириш компания томонидан тақдим этилади. Шартнома бекор қилинганда, Абонент рўйхатдан ўтиш, идентификация қилиш ёки операцияларни тасдиқлаш учун фойдаланилган Абонент рақамини банк ва бошқа иловалар, сервислар ҳамда ҳисоб ёзувларидан мустақил равишда ажратиб қўйиш мажбуриятини олади.

9. ҚОЛГАН ҚОИДАЛАР

9.1. Компания уяли радиотелефон алоқа хизматларини ўзининг техник имкониятлари ва камров ҳудуди доирасида кўрсатади. Абонентга тақдим этиладиган Хизматлар алоқа қурилмасининг конструкцион хусусиятларига кўра, бошқа мобил ва стационар алоқа операторлари тармоқларининг иш сифати билан ҳам боғлиқ бўлиб, бу тармоқларга Компания таъсир кўрсата олмайди ва улар учун жавобгар бўлмайди.

9.2. Абонентга тақдим этилаётган Хизматлар табиий, табиий-географик ва физик шароитлар туфайли ёмонлашиши ёки тўхтатилиши мумкин. Хизматлар сифатининг ёмонлашуви ёки тўхтатилиши қуйидаги ҳолатлар оқибатида юзага келган бўлса, Компания бунинг учун жавобгар бўлмайди: радиотўлқинларнинг табиий тарқалиши ва тўқнашуви, шовқинлар ва тўсиқларнинг таъсири; ҳудуд рельефининг ёки бинолар қурилишининг маҳаллий хусусиятлари; абонентнинг бинолар ичида, ертўлада, туннелларда ёки бошқа ер ости иншоотларида жойлашуви; абонент ускунасининг техник хусусиятлари ва ҳолати; об-ҳаво шароитлари ҳамда Компаниянинг таъсир кўрсатиши ёки олдиндан билиши мумкин бўлмаган бошқа сабаблар.

9.3. Компания Ўзбекистон Республикаси давлат органларининг қарорларини бажариш бўйича ишларни, шунингдек, хизматлар кўрсатилишининг сифатини вақтинча ёмонлашиши ва узилишига олиб келиши мумкин бўлган, ишлаб чиқариш зарурияти билан боғлиқ ишларни олиб бориш ҳуқуқини ўз тасарруфида қолдиради.

9.4. Абонент Компания томонидан кўрсатиладиган Хизматлар сифати ёмонлашиши ёки вақтинча узилиши учун Компания жавобгар эмаслигига розилик беради, агар мобил алоқа тармоғи ичида хизматларни тиклаш вақти узлуксиз 4 соатдан ошмаса. Магистрал транспорт тармоқларининг шикастланиши ва/ёки чекка аҳоли пунктлари ҳамда етиб бориш қийин бўлган ҳудудларда бир вақтнинг ўзида бир нечта базавий станциялар ишдан чиқиши билан боғлиқ авария ҳолатларида, мобил алоқа тармоғи хизматларини тиклашнинг рухсат этилган муддати 20 соатгача этиб белгиланади.

9.5. USSD сўров орқали абонент рақамидан сўралган маълумотлар махфий маълумот саналмайди. Компания USSD сўрови орқали тақдим этиладиган маълумотни, сўров юборилган абонент рақами орқали Компаниянинг Алоқа марказига мурожаат қилган шахсларга тақдим этиш ҳуқуқини ўзида сақлаб қолади.

9.6. PREPAID тизимида Шартноманинг қайта тикланиши (Шартноманинг бекор қилинишидан кейин қайта тикланиши) амалга оширилмайди.

9.7. Томонлар юзага келадиган келишмовчиликларни фақат музокара йўли билан бартараф этиш учун ҳамма ҳаракатларни амалга оширадilar. Музокаралар ёрдамида келишмовчиликларни бартараф қилиш имконияти мавжуд бўлмаганида, томонлар Ўзбекистон Республикаси суд органларига Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ тарзда мурожаат қиладилар.

9.8. Оммавий Офертада тартибга солинмаган масалаларда томонлар телекоммуникация хизматларини кўрсатиш қоидалари ва амалдаги Ўзбекистон Республикаси қонунчилигининг бошқа норматив-ҳуқуқий актларига, шунингдек, Компаниянинг ички ҳужжатларига асосланадилар.

9.9. Ушбу Оммавий оферта бир хил ҳуқуқий кучга эга бўлган ўзбек, инглиз ва рус тилларида чоп этилди. Номутаносибликлар юзага келганда, ўзбек тилидаги матн устунликка эгадир.

10. КОМПАНИЯ РЕКВИЗИТЛАРИ

«COSCOM» МЧЖ

Юридик манзил: Ўзбекистон Республикаси, индекс 100031, Тошкент ш., Яккасарой тумани, В.Вахидов кўчаси, 118 уй.

Банк реквизитлари:

Х/р 20208000000457913001 “Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ операцион бошқармаси

МФО: 00440

СТИР: 201788904

ОКЕД 61200

“COSCOM” MCHJ tarmog‘i PREPAID tizimida uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risida Ommaviy Oferta

«COSCOM» mas'uliyati cheklangan jamiyati (qisqartirilgan nomi «COSCOM» MCHJ) “Ucell” savdo belgisi (keyingi matnlarda «Kompaniya») O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish Vazirligi tomonidan taqdim etilgan 17.12.2018 dagi AA 0006634, 17.12.2018 dagi AA 0006636, 17.12.2018 dagi AA 0006637, 17.12.2018 dagi AA 0006638 hamda 19.07.2021 dagi AA 0007183 sonli Litsenziyalari asosida, shu bilan birga «COSCOM» MCHJ tarmog‘i PREPAID tizimida uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risidagi mazkur Ommaviy Oferta (keyingi matnlarda «Ommaviy Oferta») shartlarini qabul qilgan jismoniy shaxslarga, Ro‘yxatga olish shakli (keyingi o‘rinlarda – “Shartnoma”) imzolash orqali uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini taqdim etadi.

1. ATAMA VA TA'RIFLAR

1.1. Mazkur Ommaviy Oferta maqsadlarini ifodalashda quyidagi atama va ta'riflar qo‘llaniladi:

Abonent – uyali radiotelefon aloqa xizmatlaridan foydalanish va abonentlik raqamini olish maqsadida Kompaniya bilan uyali radiotelefon aloqa xizmatini ko‘rsatish shartnomasini tuzgan, muomalaga layoqatli (14 - 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar telekommunikatsiya xizmatlariga ulanishda ota-onalari yoki vasiylarining yozma roziligi asosida murojaat qilishlari mumkin) bo‘lgan, Kompaniya xizmatlaridan bevosita foydalanuvchi 18 yoshga to‘lgan har qanday jismoniy shaxs.

Abonent raqami – Shartnoma amal qilish muddati davomida, abonentga operator tomonidan ajratiladigan, abonent tomonidan foydalaniladigan, Kompaniya tarmog‘iga ulangan abonent qurilmasi va boshqa abonent qurilmalari bilan ulanishda identifikatsiyalanadigan raqam.

Abonent qurilmasi – Abonent mulki bo‘lgan Kompaniya tarmog‘iga bog‘lanadigan va u orqali uzatiladigan yoki qabul qilinadigan signallarni qayta ishlash uchun mo‘ljallangan texnik vosita. Abonent qurilmasi O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan standartlarga muvofiq, uskunaning ushbu turiga qo‘yiladigan belgilangan texnik talablarga javob berishi kerak.

Abonent to‘lovi – Abonentning ma‘lum (hisob-kitob qilinadigan) vaqt davri (oy, chorak, yil va b.) uchun to‘lovlari summasi haqida olingan xizmatlar hajmiga bog‘liq bo‘lmagan doimiy miqdor hisoblanadigan xizmatlarga haq to‘lash.

Kompaniya vyeby-sayti – Kompaniyaning Internet tarmog‘idagi www.ucell.uz elektron manzilida joylashtirilgan axborot resursi.

Diler - Kompaniya nomidan abonentlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Kompaniya bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxs.

Abonent shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar:

- amaldagi turar joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tganligi haqidagi yozuv kiritilgan yoxud alohida turar joy qayd etilgan varaqa taqdim etilgan, JSHSHIR ko‘rsatilgan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik pasporti;
- chet el fuqarosi pasporti;

- ofitser guvohnomasi, harbiy yo'llanma (bilet) + № 33 formasi (shartnoma bo'yicha xizmat o'tayotgan shaxslar va harbiylar uchun);
- akkreditatsiyadan o'tganlikni tasdiqlovchi karta (diplomatik vakolatxonalar va topshiriq o'tayotgan xodimlar uchun);
- fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun yashash huquqini tasdiqlovchi yoki xorijga chiquvchi, amaldagi turar joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tganligi haqida yozuv kiritilgan yoxud alohida turar joy qayd etilgan varaqa taqdim etilgan hujjat;
- fuqaroligi bo'lmagan shaxsning amaldagi turar joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tganligi haqida yozuv kiritilgan yoxud alohida turar joy qayd etilgan varaqa taqdim etilgan guvohnomasi;
- yangi namunadagi milliy haydovchilik guvohnomasi;
- O'zbekiston Respublikasi ID-kartasi.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha hujjatlar bir birining o'rnini bosishi mumkin.

Tarifikatsiya birligi – ko'rsatiladigan xizmatlarga, Kompaniya tomonidan belgilangan tarifikatsiya tizimiga bog'liq bo'lgan to'lov birligi.

To'lov kartasi – plastik karta shaklida yoki kompaniya tomonidan belgilanadigan boshqa shaklda, maxfiy kod, himoya qatlami bo'lgan, unda ko'rsatilgan miqdor/nominal qiymati bilan abonentga, abonentning shaxsiy hisobini aktivlashtirish imkoniyatini beruvchi to'lov vositasi.

Yirik avariya – ma'lum bir administrativ hududda uyali radiotelefon aloqa xizmatlari ko'rsatilishi to'xtalishiga olib keladigan avariya holati.

Kontent – Abonent so'rovi asosida, axborot, ko'ngilochar yoki boshqa mazmunga ega bo'lgan, SMS, GPRS orqali olingan matnli yoki multimedia ma'lumotlari.

Kontent-provayder – tijoriy faoliyat asosida, Kompaniya tarmog'i orqali Abonentlarga Kontent xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs. Kontent-provayderlar va ular ko'rsatadigan Kontent xizmatlari ro'yxati Kompaniya Veb-sayti hamda Kontent-provayderlarning veb-saytlarida mavjud.

Kontent-xizmatlar — Kompaniya tarmog'i orqali taqdim etiladigan qo'shimcha xizmat turi bo'lib, u Abonentga Abonent raqamining shaxsiy hisobvarag'idagi mablag'lar hisobidan pullik asosda axborot, ko'ngilochar va boshqa materiallarni olish imkoniyatini beradi.

Konferents-alloqa – Uchta va undan ortiq abonentga bir vaqtda telefon orqali muloqot qilish, suhbat paytida abonentlarning har biri bilan navbatma-navbat ulanish yoki qolgan ishtirokchilarning suhbatdagi aloqasini uzmay, birgalikdagi suhbatda o'z ishtirokini to'xtatish imkonini beruvchi xizmat.

Shaxsiy hisobvaraqa – Kompaniyaning billing tizimidagi analitik hisob reyestri bo'lib, u Shartnomaga muvofiq Abonent tomonidan xizmatlar uchun to'lov sifatida kiritilgan pul mablag'larining tushumi va sarfi, shuningdek ko'rsatilgan Xizmatlar hajmini hisobga olish uchun mo'ljallangan.

Kompaniya ofisi — Abonentlar axborot-ma'lumot xizmatlarini olishlari, mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomalarini tuzishlari va xizmatlarini boshqa turlarini olishlari mumkin bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi, Kompaniyaning har qanday rasmiy ofisi.

Operator Donor - telekommunikatsiyalar tarmog'idan abonent raqami ko'chiriladigan mobil aloqa operatori.

Operator Retsipiyent - tarmog'iga abonent raqami ko'chiriladigan mobil aloqa operatori.

JSHSHIR – (O‘zbekiston Respublikasi jismoniy shaxsini shaxsiy identifikatsiya raqami) aniqlash tartibiga muvofiq jismoniy shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjat bo‘yicha aniqlash mumkin bo‘lgan va 14 raqamdan iborat shaxsiy identifikatsiya raqami.

Prays varaqalar – Kompaniyaning asosiy xizmatlari ro‘yxatini o‘z ichiga olgan, ularning shartlari va/yoki qisqa tavsiflari va joriy davr uchun qiymati ko‘rsatilgan va Kompaniya veb-saytida joylashtirilgan axboriy ma'lumot beruvchi hujjat.

Dilerlik xizmat ko‘rsatish punkti - diler tomonidan abonentlarga xizmat ko‘rsatish uchun tashkil etiladigan va foydalaniladigan xizmat ko‘rsatish punkti.

Ro‘yxatga olish shakli – Shartnomaning ajralmas qismi sanalgan, abonentlik raqami, Abonent tomonidan avvalroq tanlangan tarif rejasi ko‘rsatilgan, abonent haqidagi ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan va Ommaviy Ofertaning barcha shartlari Abonent tomonidan to‘liq va so‘zsiz qabul qilinishini tasdiqlovchi, Kompaniya tomonidan belgilangan namunadagi shakl.

Rouming – abonent bir mamlakatda yoki boshqa mamlakatning uyali aloqa operatori xizmat ko‘rsatish zonasida bo‘lganida, bir uyali aloqa operatoriga boshqa mobil aloqa operatorlari tarmog‘idan foydalanish imkonini beruvchi xizmat.

Kompaniya tarmog‘i – Abonentga uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini ovoz, ma'lumot, rasm, video va boshqa shakldagi signallarni uzatish va qabul qilishni ta'minlovchi texnik vositalar majmuyi.

Tarifkatsiyalash – Kompaniyaning turli xizmatlari uchun to‘lov miqdorini belgilaydigan stavkalar tizimi.

Tarif rejasi – Kompaniya tomonidan abonentlarga yoki abonentlarning ma'lum guruhiga yoki ma'lum bir cheklangan hududda bir yoki bir nechta xizmatlardan foydalanishni taqdim etadigan, narxlar va texnik ma'lumotlar majmuyi.

Kompaniya xizmatlari — Ucell savdo belgisi ostida taqdim qilinadigan uyali radiotelefon aloqa xizmatlari, mobil Internet tarmog‘idan foydalanish, shuningdek Kompaniya tarmog‘i orqali olinadigan, uzatiladigan, qayta ishlanadigan axborotning boshqa turlarini taqdim etish faoliyati mahsuli.

Xizmat ko‘rsatish zonasi – Kompaniya, litsenziya shartnomasi asosida uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini ko‘rsatish huquqiga va normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan shartlarga muvofiq xizmatlar sifatini ta'minlash uchun texnik imkoniyatlarga ega bo‘lgan hudud.

Frod – axborot texnologiyalari sohasida firibgarlikning turi, xususan, ruxsat berilmagan harakatlar va aloqa tarmog‘ida xizmatlar va resurslardan noqonuniy foydalanish.

KRMB — Ko‘chirilgan raqamlarning markazlashtirilgan bazasi — mobil aloqa tarmoqlarida ko‘chirilgan abonent raqamlari haqidagi ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan ma'lumotlar bazasini boshqaradigan apparat-dasturiy kompleks.

Shlyuz – Mobil aloqa tarmoqlari va telekommunikatsiyalarning boshqa tarmoqlari o‘rtasida, xalqaro trafikni o‘tkazish va foydalanish maqsadida, o‘rnatilgan xavfsizlik tizimlarini chetlab o‘tgan holda, telekommunikatsiya tarmog‘iga server yoki boshqa uskuna orqali, noqonuniy (ruxsatsiz) ulanuvchi, Kompaniya tarmog‘i va boshqa aloqa tarmoqlari o‘rtasida ovozli va/yoki ovozsiz axborot o‘tkazilishini amalga oshirish imkonini beruvchi (jumladan mobil aloqa, ko‘chmas (statsionar) aloqa, ma'lumotlar uzatish va boshqalar orqali) va/yoki uchinchi shaxsga Kompaniya tarmog‘idan foydalanish imkonini beruvchi GSM, SMS, IP apparat dasturiy vosita.

eSIM — Abonent qurilmasiga o'rnatilgan, an'anaviy jismoniy SIM-karta vazifalarini bajaruvchi dasturiy-apparat virtual identifikatsiya moduli. U Abonent qurilmasini identifikatsiya qilish, uning mobil tarmoqqa ulanishini ta'minlash hamda Abonent raqamini ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish vazifalarini bajaradi. eSIM tarmog'iga ulanish va profilni yuklab olish faqat eSIM faollashtirish kodi (QR-kod)ni skaner qilish yoki uni qo'lda kiritish orqali amalga oshiriladi.

eSIM - ni faollashtirish kodi (shu jumladan eSIM QR-kodi) — Kompaniya tomonidan generatsiya qilinadigan noyob harf-raqamli kod yoki uning matritsali shtrix-kod (QR-kod) ko'rinishidagi grafik tasviridir. U o'z ichiga eSIM modulini masofadan yuklab olish va faollashtirish uchun zarur bo'lgan shifrlangan ma'lumotlarni qamrab oladi. Mazkur kod Abonentning qat'iy maxfiy ma'lumoti hisoblanadi, Abonent raqamiga kirish kaliti sifatida e'tirof etiladi hamda huquqiy jihatdan SIM-kartaning jismoniy tashuvchisini topshirishga tenglashtiriladi.

GPRS - General Packet Radio Service. GSM tarmoqlarida qo'llaniladigan internetprotokol bo'yicha ma'lumotlarni o'tkazish texnologiyasi. GPRS ma'lumotlarni paket rejimida o'tkazib, xizmat uchun to'lov GPRS -sessiyaning davomiyligiga bog'liq bo'lmagan holda, yuborilgan va olingan ma'lumotlarning hajmiga proporsional ravishda undiriladi.

IMEI kodi (International mobile Equipment Identifier) yoki xalqaro o'ziga xos identifikatsiya kodi- 15 raqamdan iborat bo'lgan va GSMA tomonidan ajratiladigan, shuningdek, tarmoqda GSM/UMTS/LTE standartlarida ishlovchi mobil aloqa abonent qurilmasini identifikatsiyalovchi raqam.

MNP (Mobil Number Portability) abonent raqamining ko'chib o'tishi - mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi asosida donor tomonidan abonentga ajratilgan abonent raqamini boshqa mobil aloqa operatori (retsipiyent) bilan yangi shartnoma tuzishda saqlash va undan foydalanish uchun amalga oshiriladigan tashkiliy-texnik tadbirlar majmui.

PIN - Personal Identification Number. Uyali aloqa tarmog'i abonentini identifikatsiyalash uchun qo'llaniladigan kod. Odatda to'rt raqamdan iborat bo'ladi. SIM-kartaga bog'langan, lekin abonentning xohishiga binoan telefon menyusi yordamida o'zgartirilishi mumkin. Agarda abonent o'z telefonidagi tegishli funktsiyani mustaqil ravishda o'chirmagan bo'lsa, telefon yoqilganda PIN so'raladi.

PUK - Personal Unblocking Code yoki SIM-karta bloklangan holatda (masalan, PIN-kod bir necha marta noto'g'ri kiritilganda) uni blokdan chiqarish uchun mo'ljallangan kod. **PUK** SIM-kartaga birlashtirilgan bo'lib, Kompaniya bilan shartnoma tuzilganda beriladi.

SIM-karta – Ichiga mikrosxema o'rnatilgan, olinuvchi identifikatsiya moduli, uning yordamida abonent qurilmasini identifikatsiya qilish, uning mobil aloqa tarmog'idan foydalana olish, shuningdek, abonent raqamidan ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish ta'minlanadi.

SMS qisqa matnli xabar - Short Message Service, — Qisqa xabarlar markazi orqali aloqa abonentlariga qisqa matnli xabarlarni uzatish va qabul qilish uchun mo'ljallangan xizmat.

Face ID - odamning yuz shakli hajmini skanerlash. Tizim quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

- Abonent shaxsini tasdiqlash (autentifikatsiya);
- Abonent shaxsining haqiqiyligini tasdiqlash (verifikatsiya);
- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa holatlarda shartnomalar tuzishda, agar qonunchilik yoki tomonlar kelishuviga ko'ra hujjatni shaxsan imzolash talab etilsa, tomon elektron raqamli imzo orqali tasdiqlash tartibini bajargan bo'lsa, elektron hujjat imzolangan deb hisoblanadi. Face-ID rozilikni

ifodalovchi hamda hujjatni imzolagan shaxsni identifikatsiya qilish va autentifikatsiya qilish imkonini beruvchi imzo va elektron tasdiq sifatida tan olinadi.

2. OMMAVIY OFERTA PREDMETI.

2.1. Kompaniya, tanlangan Tarif rejasi va aloqa Xizmatlarini ko'rsatish shartlariga muvofiq tarzda Abonentga uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini ko'rsatish javobgarligini o'z zimmasiga oladi. Abonent esa, Kompaniya veb-saytida e'lon qilingan va mazkur Ommaviy Ofertada ko'rsatilgan, shartlar va tartiblar asosida to'lovni o'z zimmasiga oladi.

2.2. Ushbu Ommaviy Oferta barcha Abonentlarga nisbatan bir xil kuchga ega bo'lib, Abonent bilan avvalroq tuzilgan MCHJ «COSCOM» tarmog'ida uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini PREPAID tizimida taqdim etish uchun Shartnoma o'rini egallaydi. Abonentlarga aloqa Xizmatlarini ko'rsatish, mazkur Ommaviy Oferta, Kompaniya veb-saytida taqdim qilingan vaqtdan boshlab, Oferta shartlariga muvofiq tarzda belgilanadi. Bunda, imzolash/qayta imzolash uchun Ro'yxatga olish shakli shart emas. Ommaviy Oferta va Xizmatlar shartlariga nisbatan norozilik paydo bo'lsa, Abonent Ommaviy oferta taqdim qilingan kundan boshlab, 30 (o'ttiz) kun davomida Kompaniya veb-sayti orqali, yozma ravishda Ommaviy Oferta shartlarini qabul qilishdan bosh tortishi to'g'risida xabar berishi lozim. Ushbu Ommaviy oferta shartlarini bajarishdan bosh tortish to'g'risidagi Abonent Arizasi belgilangan muddatda Kompaniyaga taqdim etilmasligi konklyudent xatti-harakat (Aloqa xizmatlaridan amalda foydalanish) deb qabul qilinadi va ushbu ommaviy oferta shartlarini Abonent tomonidan to'liq hamda so'zsiz qabul qilinishini anglatadi.

2.3. Abonent ushbu ommaviy oferta shartlarini so'zsiz va to'liq qabul qilganda, kompaniya abonentga Ro'yxatdan o'tish blankida (shakl) ko'rsatilgan abonent raqamini foydalanish uchun taqdim etadi.

2.4. Birlamchi xizmatlar ro'yxati:

- Voice*
- SMS*
- GPRS*
- Chaqirayotgan abonent raqamini aniqlash
- Chaqiriqni boshqa raqamga yo'naltirish
- Konferents-alloqa
- Qo'ng'iroqlarni taqiqlash
- Chaqiriqni kutish /ushlab turish
- Ucell Roaming
- Menga qo'ng'iroq qil
- Qo'shimcha kontent-xizmatlarni bloklash

*kompaniya uskunalari darajasida deaktivatsiya qilinmaydigan asosiy xizmatlar.

Abonent, o'z xohishiga ko'ra, USSD, SMS yo'li bilan yoxud Kompaniya ofislariga murojaat qilgan holda yoki Kompaniya tomonidan taklif qilingan boshqa usul bilan Kompaniya tomonidan taqdim etiladigan boshqa xizmatlarga ulanishi va aksincha o'chirishi mumkin.

2.5. Kompaniya tomonidan taqdim etiladigan Xizmatlar to'g'risidagi barcha dolzarb ma'lumotlar, shu jumladan tariflar, Xizmatlarni taqdim etish tartibi va shartlari, taqdim etiladigan Xizmatlar ro'yxatining o'zgarishi hamda xizmat ko'rsatish hududi haqidagi ma'lumotlar Kompaniyaning Veb-saytida joylashtirilgan.

3. TOMONLARNING XUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

3.1. Kompaniya quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. Bir tomonlama tartibda Ommaviy Ofertani, Ro'yxatga olish shaklni (blankini), uyali radiotelefon aloqa xizmatlari va tarifikatsiyalarni taqdim qilish tartib va shartlarini o'zgartirish.

3.1.2. Abonent tomonidan Shartnoma shartlari bajarilmaganda, xizmatlar taqdim qilishni cheklash yoki to'xtatib qo'yish, shu bilan birga:

3.1.2.1. Abonent tomonidan Kompaniyaga, shuningdek boshqa abonentlarga va/yoki uchinchi shaxslarga Xizmatlardan foydalanish orqali zarar yetkazilgan hollarda, jumladan, lekin quyidagilar bilan cheklanmagan holda: mavjud bo'lmagan to'lov kartalarini faollashtirishga bir necha marta urinish; Kompaniya bilan yozma ravishda kelishmasdan abonent raqamidan lotereyalar, ovoz berishlar, tanlovlar, reklama kampaniyalari va so'rovlar o'tkazish uchun foydalanish; spam-xabarlar yuborish, ommaviy SMS-tarqatishlar amalga oshirish, firibgarlik harakatlarini sodir etish, shuningdek Kompaniyaning uskunolari va aloqa qurilmalari ishlash qobiliyati buzilishiga olib keluvchi boshqa harakatlarni amalga oshirish hollarida.

3.1.2.2. Kompaniya tomonidan (mustaqil ravishda yoki vakolatli organlar yoxud boshqa aloqa operatorlarining xabarlari asosida) Abonent tomonidan xalqaro trafikdan noqonuniy foydalanish va/yoki Kompaniyaning xabardor qilmasdan Kompaniya tarmog'ida GSM-, IP- yoki SMS-shlyuzlardan foydalanish holatlari aniqlanganda, shu jumladan Kompaniya tarmog'ida noqonuniy harakatlarni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan maxsus uskunalar va/yoki dasturiy ta'minotdan foydalanilgan hollarda.

3.1.2.3. Abonentning Shaxsiy hisob raqamida Xizmatlardan foydalanish uchun yetarli pul mablag'lari bo'lmagan holatlarda.

3.1.2.4. Agar abonent tomonidan tanlangan xizmatlarning ta'riflanishiga muvofiq, Kompaniya belgilagan muddat ichida, abonent pullik harakatlar (abonentning shaxsiy hisob raqamidan pul mablag'larini yechib olishga sabab bo'la oladigan, abonent qurilmasi yoki tizim orqali barcha harakatlar) amalga oshirmagan bo'lsa.

3.1.2.5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan boshqa holatlarda.

3.1.3. Xizmatlar ko'rsatilishini chiqish qo'ng'iroqlari (favqulodda xizmatlar raqamlariga qo'ng'iroqlar hamda Abonent bloklangan holatda ham bepul foydalanish mumkin bo'lgan, telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidalarida belgilangan raqamlardan tashqari), kirish qo'ng'iroqlarini, SMS, GPRS va Abonentning boshqa pullik, bepul xizmatlarini bloklash yo'li bilan qisman yoki butunlay to'xtatish huquqiga ega:

- abonentning shaxsiy ma'lumotlarining uning shaxsini tasdiqlovchi aktual hujjatga to'g'ri kelmasligi;

- kompaniyada Abonentning shaxsini tasdiqlovchi hujjat nusxalari va/yoki Abonentlik raqami ulanishida imzolanadigan hujjatlarning asl nusxalari mavjud emasligi;
- kompaniyaning ichki hujjatlari bilan nazarda tutilgan boshqa vaziyatlarda.

Abonentning bloklangan holatga o'tkazilishida, Abonentga tegishli SMS -xabar yuboriladi. Bunda, Abonent tegishli SMS -xabar olgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni davomida o'z shaxsiy ma'lumotlarini yangilash uchun Kompaniya ofislariga murojaat qilishi yoki Kompaniya rasmiy veb-saytida «Shaxsiy ma'lumotlarini yangilash» xizmati orqalik o'zining shaxsiy ma'lumotlarini aktualizatsiyalashi zarur. SMS -xabar faqatgina ma'lumot yetkazish xususiyatiga ega va uning mavjud emasligi/qabul qilinmasligi Abonentni ushbu Ommaviy Ofertaning 3.4.7 bandida ko'rsatilgan shartlarni bajarishdan ozod etmaydi. Abonent bloklangan holatga o'tkazilgani haqidagi SMS-xabarlarini Abonent olmaganligi uchun Kompaniya Abonent oldida javobgar bo'lmaydi.

3.1.4. Kompaniya shartnoma tuzilgan kundan boshlab 31 kun ichida chiquvchi (favqulodda vaziyatlar va ma'lumotlar olish bundan mustasno) qo'ng'iroqlar, SMS, GPRS va/yoki boshqa pullik/rouming xizmatlari amalga oshirmagan, shaxsiy hisob raqamini to'ldirmagan taqdirda, shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqlidir.

3.1.5. Zaruriyat tug'ilganida, Abonent raqamini o'zgartirishdan kamida 10 (o'n) kun oldin Abonentga oldindan xabar bergan holda, Abonentlik raqamini o'zgartirish.

3.1.6. Kompaniya va uchinchi shaxslar nomidan reklama, axborot va servis xususiyatiga ega SMS-xabarlar hamda IVR qo'ng'iroqlarini yuborish.

3.1.7. Kompaniya o'z xizmatlarini, shuningdek hamkorlari bilan birgalikda ko'rsatiladigan xizmatlarni targ'ib qilish maqsadida turli xil marketing kampaniyalari, aksiyalar, dasturlar, yutuqli o'yinlar va boshqa tadbirlarni o'tkazishi mumkin. Ular bo'yicha batafsil shartlar / qoidalar / oferta Kompaniya tanloviga ko'ra Veb-saytda, Kompaniyaning mobil ilovasida, Kompaniya ofislarida, Kompaniya dilerlarining sotuv nuqtalarida yoki hamkorlarning axborot resurslarida / ommaviy axborot vositalarida joylashtiriladi.

3.1.8. Kompaniya quyidagi hollarda abonentga abonent raqamini boshqa uyali aloqa operatori tarmog'iga o'tkazishni rad etishga haqli:

- Abonent raqamini ko'chirish paytida Abonentda Shartnoma bo'yicha qarzdorlik mavjud bo'lsa;
- Abonentning shaxsiy ma'lumotlari Abonent shaxsini tasdiqlovchi amaldag'i hujjatdagi ma'lumotlarga mos kelmasa;
- Abonent raqami bloklangan holatda bo'lsa;
- Abonent tomonidan Shartnoma bo'yicha bajarilmagan majburiyatlar mavjud bo'lsa.

3.1.9. Abonentga «Mobil avans» va/yoki «Internet avans» xizmatlarini taqdim etish, ularning amal qilish muddati Kompaniya tomonidan belgilanadi. Ko'rsatilgan muddat tugagach, Kompaniya qo'shimcha rozilik olmasdan Abonentning shaxsiy hisobidan qarzdorlik summasini to'liq hajmda avtomatik tarzda hisobdan chiqarish huquqiga ega. Agar Abonentning shaxsiy hisobida mablag' yetarli bo'lmasa, hisobdan chiqarish manfiy balans (qarzdorlik) shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

3.1.10. Kompaniya O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tarzda boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

3.2. Abonent quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. Amaldagi Prays-varaqlarda va/yoki kompaniyaning axborot materiallarida ko'rsatilgan tartib-qoidalariga muvofiq foydalaniladigan xizmatlar ro'yxatini o'zgartirish.

3.2.2. Kompaniyaga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tarzda Shartnomaning bajarilishi ustidan shikoyatlar yuborish.

3.2.3. Abonentning Kompaniya oldida Shartnoma bo'yicha bajarilmagan majburiyatlari mavjud bo'lmagan holda, Kompaniya tomonidan o'rnatilgan tartibda Shartnomani boshqa shaxsga rasmiylashtirish.

3.2.4. Kompaniyadan hamda Kompaniya tomonidan mazkur Ofertaning 3.1.6-bandiga muvofiq yuboriladigan uchinchi shaxslarning reklama, axborot va servis SMS-xabarlar hamda IVR-qo'ng'iroqlarini olishdan USSD-so'rovni terish yoki Kompaniya ofislariga yozma ariza taqdim etish orqali voz kechish. Bunda reklama, axborot va servis SMS-xabarlarini olishdan voz kechish Kompaniya tomonidan 3.3.9-bandida ko'rsatilgan hollarda yuboriladigan SMS-xabarlarni olishni cheklamaydi.

3.3. Kompaniyaning majburiyatlari:

3.3.1. Shartnomaning amal qilish muddati davomida vaqtinchalik foydalanish uchun Kompaniya mulki hisoblangan Abonent raqamini, shuningdek SIM-karta/eSIM faollashtirish kodini Abonentga taqdim etadi. Tarmoqqa ulanish narxi SIM-karta/eSIM faollashtirish kodi narxini o'z ichiga oladi. Abonent va SIM-karta/eSim raqamlari ro'yxatga olish shaklida (blankida) ko'rsatiladi.

3.3.2. Shartnoma tuzilib va Abonent tomonidan birlamchi to'lov amalga oshirilgandan so'ng, Shartnomaga asosan Abonentga 1 (bir) ish kuni davomida xizmatlar taqdim etish.

3.3.3. To'lov mavjud bo'lgan holda Abonentga, u tanlagan ro'yxatga muvofiq, amaldagi Shartnoma, tarififikatsiyalash va Kompaniyaning narxlariga asoslangan holda, xizmatlarni ko'rsatish.

3.3.4. Abonent belgilangan tartibda raqam ko'chirish xizmatidan foydalanganda abonent raqamining (MNP) Donori yoki Retsipiyent bo'lish.

3.3.5. Abonentlarga uyali radiotelefon aloqa tarmoqlarida abonent raqamlarini ko'chirish (MNP) shartlari to'g'risida ma'lumot taqdim etish.

3.3.6. Retsipiyent va Abonent o'rtasida shartnoma bekor qilingan taqdirda, O'zR qonunchiligida belgilangan muddatda ko'chirilgan raqamni Donorga qaytarish.

3.3.7. Abonent raqamini ko'chirish (MNP) imkoniyati KRMB tomonidan tasdiqlanganidan so'ng Shartnomani bekor qilish va barcha turdagi xizmatlarni bloklash, shuningdek Kontent-provayderlar bilan hamkorlikda taqdim etiladigan xizmat va servislarni, jumladan SMS-xabar berish xizmatlarini (Uzcard, HUMO va boshqalar) va hokazolarni o'chirish.

3.3.8. Abonentni Shartnoma shartlari, ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati, xizmatlarni ko'rsatish tartibi va shartlari hamda tariflar o'zgarishlari haqida Kompaniya tanloviga ko'ra Veb-saytda yoki ommaviy axborot vositalari orqali SMS-xabar tarzida e'lon qilib, ular joriy etilganiga qadar kamida 15 (o'n besh) kun oldin xabardor qiladi. Abonent ushbu xabarlarni Kompaniyaga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra olmagan taqdirda, Kompaniya Abonentning o'z vaqtida tanishmasligi uchun javobgarlikni olmaydi va bu borada da'volarni qabul qilmaydi.

3.3.9. Abonent bilan Shartnoma bekor qilinishida, Shartnomada ko'zda tutilgan tartibda va shartlarda, o'zaro hisob kitoblarni amalga oshirish.

3.4. Abonentning majburiyatlari:

3.4.1. Shartnoma shartlariga amal qilish.

3.4.2. Mustaqil ravishda Kompaniyaning rasmiy ma'lumotlari bilan, shu bilan birga, Kompaniyaning veb saytida taqdim qilinayotgan xizmatlar ro'yxati, tarifikatsiya, xizmatlarni ko'rsatish tartibi, shartlari va xizmat ko'rsatish doirasi o'zgarishi bilan bog'liq ma'lumotlar bilan tanishish.

3.4.3. SIM-karta/eSIM faollashtirish kodi yo'qolganligi haqida darhol Kompaniyaning rasmiy ofislaridan biriga yozma ariza bilan murojaat etish yo'li bilan yoki Kompaniya tomonidan nazarda tutilgan boshqacha usul bilan xabar berish. Abonent tomonidan belgilangan qoidaga amal qilinmaganda, Kompaniya tomonidan Abonentdan yozma arizani qabul qilinmagunigacha, Abonent yo'qotgan SIM-karta/eSIM faollashtirish kodidan foydalangan holda ko'rsatilgan Xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.4.4. Taqdim etilgan Abonent raqam, lotereyalar, viktorinalar tashkil etish va o'tkazish, reklama tarqatish, sotilgan tovarlar (xizmatlar, ishlar) uchun pul yig'ish, homiylik, moddiy yordam ko'rsatish va Shartnoma predmeti sifatida ko'rsatilmagan boshqa maqsadlarda, uchinchi shaxs huquqlarining buzilishi, shuningdek Kompaniya aloqa uskunalari va qurilmalarining ishlashiga ta'sir ko'rsatuvchi harakatlar uchun foydalanilmasligi lozim. Agar yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarda Abonent raqamidan foydalanish aniqlangan va aniq ma'lumotlar bilan tasdiqlangan bo'lsa, yoki yuqoridagi harakatlarning alomatlari mavjud bo'lgan taqdirda Kompaniya O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunlari va yangi tahrirdagi Uzbekiston Respublikasining amaldagi soliq kodeksi asosida davlat organlariga xabar berish huquqiga ega.

3.4.5. Abonent, shaxsiy foydalanish uskunalari hisoblanmagan, boshqa Abonentlarning huquqlarini, Shartnoma shartlarini va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligini buzish orqali Xizmatlardan foydalanishga mo'ljallangan shlyuzlar yoki boshqa maxsus texnik moslamalar/dasturlardan foydalanmaslik, jumladan, uchinchi shaxslarga aloqa xizmatlarini shuningdek, o'zga aloqa operatorlari, statsionar aloqa, internet/IP-telefoniya xizmatlarini va boshqalarni taqdim etish taqiqlanadi.

3.4.6. Abonentlar Kompaniya ofislariga Xizmatlardan foydalanish uchun murojaat qilganda, talab asosida o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasi yoki Kompaniya tomonidan belgilangan boshqa hujjatlarni taqdim etadi.

3.4.7. Ro'yxatga olish shaklida (blankida) ko'rsatilgan shaxsiy ma'lumotlar (famiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yashash joyi bo'yicha yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olinganligi va pasport ma'lumotlari) o'zgargan taqdirda, bu haqda Kompaniyaga ushbu o'zgarishlar sodir bo'lgan paytdan boshlab 15 kun ichida xabar berish (Kompaniya ofislariga murojaat qilishi yoki Kompaniya rasmiy veb-sayti orqalik «**Shaxsiy ma'lumotlarini yangilash**» xizmati orqalik o'zining shaxsiy ma'lumotlarini aktualizatsiyalashi zarur).

3.4.8. SIM-karta/eSIM orqali olinayotgan materiallar, ma'lumotlar, xizmatlar va mahsulotlardan foydalanish bilan bog'liq barcha xatarlarni o'z zimmasiga olish:

a) internet tarmog'ida;

b) ularga kirish Kompaniya tarmog'i orqali ulanish yordamida amalga oshiriladigan kontentprovayderlar.

3.4.9. «Mobil avans» va/yoki «Internet avans» xizmatlaridan foydalanishdan oldin Kompaniya veb-saytida ularni taqdim etish shartlari, jumladan amal qilish muddati bilan tanishish. Xizmatlardan foydalanilgan taqdirda qarzdorlikni o'z vaqtida so'ndirishni ta'minlash, shuningdek xizmatlar amal qilish muddati tugagach qarzdorlikning shaxsiy hisob raqamidan avtomatik ravishda yechilishiga rozilik bildirish. Shaxsiy hisobda mablag' yetarli bo'lmagan holatda manfiy balans yuzaga kelishiga yo'l qo'yish va yuzaga kelgan qarzdorlikni to'liq hajmda qoplash majburiyatini olish.

3.4.10. O'z nomiga rasmiylashtirilgan Abonent raqami, SIM-karta, shuningdek eSIM faollashtirish kodi (jumladan QR-kod)ni uchinchi shaxslarga bermaslik. Abonent ushbu identifikatorlarni boshqa shaxslarga taqdim etish ulardan firibgarlik (frod), kiberfiribgarlik, noqonuniy pul o'tkazmalari, shaxsiy ma'lumotlarni ruxsatsiz qo'lga kiritish hamda boshqa huquqbuzarliklarni sodir etish maqsadida g'ayriqonuniy foydalanish uchun sharoit yaratishini anglaydi va bunga rozilik bildiradi.

4. HISOB-KITOBLAR TARTIBI VA XIZMATLAR KO'RSATISH

4.1. Xizmatlarga bo'lgan tarifkatsiya Kompaniya tomonidan mustaqil ravishda belgilanib, O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda o'rnatiladi.

4.2. Ro'yxatdan o'tish formasini imzolashdan so'ng, Abonent minimal to'lovni amalga oshirishi zarur (minimal to'lov Ro'yxatdan o'tish formada va Kompaniyaning rasmiy veb-saytda ko'rsatilgan). Xizmatlardan foydalanishni boshlash uchun, Abonent tomonidan tanlangan tarif/xizmatlar uchun oldindan to'lov kiritilishi kerak. To'lov Abonent tomonidan quyidagi usullardan biri bilan amalga oshiriladi:

- a)** kompaniyaning sotuv va xizmat ko'rsatish ofislarida naqd pul to'lovi orqali;
- b)** bank plastik kartasi orqali;
- v)** to'lov tizimlari, agentlik tarmoqlari va boshqalar orqali;
- g)** to'lov kartalarida ko'rsatilgan qoidalarga muvofiq, to'lov kartasini aktivlashtirish orqali.

4.3. Xizmatlarning keyingi to'lovi Abonent tomonidan, Shartnomaning 4.2 bandida ko'rsatilgan usullarda avans to'lovlarni kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

4.4. Agarda Abonent, pullik/oddiy raqamga ulanganda, raqamning qiymatini yoki tarif rejani kiymatini 24 (yigirma to'rt) soat davomida to'lamagan bo'lsa, Shartnoma tuzilmagan hisoblanadi va bir tomonlama bekor qilinadi.

4.5. PREPAID tizimidagi xizmatlar oldindan to'lov sharti asosida taqdim etiladi. To'lov amalga oshirilgach, Kompaniya Abonentga, Kompaniya veb-saytida ko'rsatilgan tarifkatsiya va xizmatlarni ko'rsatish shartlariga muvofiq, Abonentning shaxsiy hisob raqamida mablag' tugagunga qadar bo'lgan to'lov qiymatiga teng xizmatlarni taqdim etadi.

4.6. Shaxsiy hisob raqamidagi mablag'lar Kompaniya tomonidan o'rnatilgan minimumgacha pasayganida, Kompaniya Veb saytida ko'rsatilgan shartlar asosida, Abonentning xizmatlardan foydalanish huquqi cheklanadi, shu jumladan, xizmatdan foydalanish vaqtida ham amaldagi shartlarga muvofiq cheklovlar qo'llanilishi mumkin. Xizmatlardan foydalanish va cheklashning boshqa shartlari ham kompaniyaning veb-saytida va/yoki kompaniyaning axborot materiallarida ko'rsatilgan.

4.7. Xizmatlardan foydalanish cheklanganidan so‘ng – Abonent raqami blok holatiga o‘tkaziladi, Abonentga belgilangan muddat davomida shaxsiy hisob raqamini to‘ldirish va xizmatlardan foydalanishni tiklash imkoniyati beriladi. Belgilangan muddat, batafsil, Kompaniya Veb saytida ko‘rsatib o‘tilgan.

4.8. Xizmatlardan foydalangan sari, Abonent hisobidan, xizmatlarga bo‘lgan amaldagi tarifikatsiya tomonidan belgilangan qiymatlar yechiladi. Xizmatlarga bo‘lgan tarifikatsiya Kompaniya tomonidan belgilanib, Kompaniyaning Prays - varaqalarida (list) va/yoki axborot materiallarida aks ettiriladi.

4.9. Hisobga olish, tarifikatsiya tizimida texnik nosozliklar vujudga kelgan hollarda yoki tizimda rejali/rejadan tashqari ishlar amalga oshirilganda, Kompaniya xizmatlarni ko‘rsatishdagi nosozliklar bartaraf qilingandan so‘ng tarifikatsiya qilish huquqini o‘zida qoldiradi.

4.10. Xizmatlar har kuni 24 soat davomida, uzluksiz taqdim qilinadi, zarur bo‘lgan profilaktika va avariya-ta'mirlash ishlarining o‘tkazilishi bundan mustasno.

4.11. Kompaniya tarmog‘ida yuz bergan yirik avariyaalar sababli xizmatlarni ko‘rsatish to‘xtatilgan hollarda, Kompaniya Abonentni bu haqda hamda xizmatlar qayta tiklanishining taxminiy muddatlari haqida Kompaniyaning Veb-saytida yoki Kompaniya tanlagan boshqa usul bilan xabar qiladi.

4.12. Kompaniya Abonentga, uning Shaxsiy hisob raqamida pul mablag‘lari mavjud bo‘lmagan holda ham, O‘zbekiston Respublikasi hududida tegishli xizmatlar uchun o‘rnatilgan yagona raqamlarni terish orqali favquloddagi operativ xizmatlarni bepul va kechayu - kunduz chaqirish imkoniyatini beradi.

4.13. Kompaniya tomonidan Shartnomaga asoslangan holda ko‘rsatiladigan Xizmatlar to‘g‘risidagi qo‘shimcha ma'lumot, Kompaniyaning veb-saytida, Kompaniya ofislarida, Kompaniya dilerlarining savdo nuqtalarida, shuningdek Kompaniya tanloviga ko‘ra ommaviy axborot vositalarida joylashtiriladi.

4.14. Shartnoma tuzilganda, Abonent Kompaniyaga uning shaxsiy va biometrik ma'lumotlarini Kompaniya xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida qayta ishlashga (yig‘ish, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, uzatish, shaxssizlantirish va yo‘q qilish) rozilik beradi.

Abonent shaxsiy / biometrik ma'lumotlarni uni olish faktini tasdiqlashga imkon beradigan har qanday shaklda qayta ishlashga rozilik beradi.

Xizmatlarni taqdim etish jarayonida Abonentning shaxsiy / biometrik ma'lumotlarining bir qismi xizmat ko‘rsatishning uzluksizligi va to‘g‘riligini ta'minlash uchun uchinchi shaxslarga berilishi mumkin.

Kompaniya tarmog‘i orqali taqdim etiladigan qo‘shimcha xizmatlarga ulanish uchun ro‘yxatdan o‘tish shaklini imzolash va/yoki so‘rov yuborish orqali abonent Abonentning shaxsiy / biometrik ma'lumotlarini kompaniya tomonidan qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatadigan uchinchi shaxslarga (kontent-provayderlar, to‘lov agentlari, to‘lov tashkilotlari), shuningdek Kompaniyaning axborot tizimlarini texnik qo‘llab-quvvatlaydigan yetkazib beruvchilarga taqdim etishga rozilik beradi. Abonent qo‘shimcha xizmatlardan uzib qo‘yilgandan so‘ng, ilgari uzatilgan ma'lumotlar Kompaniya uskunasi texnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tegishli tizimlarda saqlanishi mumkin

Abonentning shaxsiy ma'lumotlari (trafik, shaxsiy hisob ma'lumotlari, to'lovlar, ko'rsatilgan xizmatlar va servislar, harakatlar, moliyaviy ma'lumotlar va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlar) kompaniya tomonidan faqat xizmatlar ko'rsatish, shuningdek uchinchi shaxslarga qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish uchun yig'iladi, ishlatiladi va qayta ishlanadi (kredit va moliyaviy reyting uchun skoring, to'lov tashkilotlari tizimlari va boshqalar).

Kompaniya olingan shaxsiy / biometrik ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlaydi. Ularning xavfsizligi va maxfiyligi kompaniya tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq kafolatlanadi.

4.15. Kompaniya abonentlarining shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligi siyosati Kompaniyaning veb-saytida joylashtirilgan.

4.16. Kompaniya abonentlarining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish Aloqa xizmatlarini ko'rsatish maqsadida, shuningdek, quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

4.16.1. abonent taraf bo'lgan mazkur oferta shartlarini bajarish maqsadida;

4.16.2. Operatorning qonunchilik hujjatlarida belgilangan majburiyatlarini bajarishida;

4.16.3. abonentning qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida;

4.16.4. Kompaniyaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda.

4.16.5. Kompaniyaning xizmatlar ko'rsatish, personallashtirilgan takliflar taqdim etish, abonentlarga maslahat va texnik ko'mak ko'rsatish jarayonida statistik, tahliliy, tijoriy va/yoki texnologik maqsadlarda.

4.16.6. davlat organlarining so'rovlariga muvofiq abonentlarni xabardor qilish maqsadida;

5. MUROJAATLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

5.1. Abonentlarning xizmat ko'rsatish doirasida yuzaga keladigan savollari yuzasidan, Abonent Kompaniyaga tegishli ariza bilan murojaat qilishi mumkin bo'lib, uning ko'rib chiqilishi amaldagi qonunchilik doirasida va Kompaniya tomonidan o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

5.2. Kompaniya tomonidan Shartnomaviy majburiyatlar bajarilmaganda yoki noto'g'ri bajarilganda. Abonent yozma, og'zaki va/yoki elektron shaklda shikoyat qilish huquqiga ega.

5.3. Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatishni rad etish, shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmaslik yoki lozim darajada bajarilmaslik bilan bog'liq masalalar yuzasidan shikoyatlar, telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilgan, uni ko'rsatish rad etilgan yoki hisob taqdim etilgan kundan boshlab 6 oy ichida beriladi.

5.4. Abonentlarning murojaatlari, agar boshqasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilmagan bo'lsa, murojaatlarning ro'yxatdan o'tkazilganlik sanasidan boshlab, 30 (o'ttiz) kundan oshmagan muddat davomida Kompaniya tomonidan ko'rib chiqiladi.

5.5. Abonent murojaatlari ko'rib chiqilishi natijalari haqida Kompaniya yozma, og'zaki yoki elektron shaklda xabar beradi (Abonentning talabiga muvofiq). Yozma javob pochta orqali buyurtma xat tarzida yoki elektron pochta orqali, shuningdek, jo'natuvchini qayd etishni ta'minlaydigan boshqa aloqa vositalari orqali yuboriladi yoki Kompaniyaning ofisida Abonentga qo'l qo'ydirib topshiriladi. Og'zaki javob telefon/mobil aloqa orqali taqdim etiladi.

6. FORS MAJOR

6.1. Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar, agar bunday bajarmaslik Shartnoma tuzilgandan keyin yuzaga kelgan yengib bo'lmaz kuch holatlari natijasida sodir bo'lgan bo'lsa. Yengib bo'lmaz kuch holatlari deganda Tomonlar tomonidan oldindan ko'rib bo'lmaydigan yoki mavjud vositalar orqali oldini olish mumkin bo'lmagan favqulodda voqealar yoki holatlar tushuniladi. Bunday «favqulodda voqealar yoki holatlar» jumlasiga quyidagilar kiradi, lekin bular bilan cheklanmaydi: yong'inlar, uchinchi shaxslarning harakatlari (ularning aybi bilan Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik yuzaga kelgan hollarda), tabiiy ofatlar (suv toshqinlari, zilzilalar va h.k.), harbiy harakatlar, O'zbekiston Respublikasi vakolatli davlat boshqaruvi organlarining harakatlari yoki normativ hujjatlari, shuningdek Tomonlarning oqilona nazoratidan tashqari bo'lgan, Tomonlar tomonidan oldindan ko'rilmagan va oldini olish mumkin bo'lmagan boshqa har qanday holatlar.

7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI. SHARTNOMANI TUZISH, O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

7.1. Shartnoma Tomonlarning Ro'yxatga olish blankini imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va/yoki Shartnomaning shartlariga asoslangan holda bekor qilingunicha amal qiladi.

7.2. Shartnoma Abonent va Kompaniya o'rtasida Kompaniya ofislarida, Kompaniya dilerlari savdo nuqtalarida va mobil ilova orqali, yuz qismining foto/video tasvirini (Face ID) olish yoki Ro'yxatga olish shaklini imzolash orqali tuziladi.

7.3. Tomonlar Ro'yxatga olish shakliga (blankiga) imzo qo'yishda Kompaniyaning vakolatli shaxsi imzosi faksimili tarzida qo'yilishiga kelishadilar.

7.4. Kompaniya Ommaviy ofertani bir tomonlama tartibda o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish huquqiga ega. Ommaviy ofertaga kiritilayotgan o'zgartishlar va/yoki qo'shimchalar haqidagi ma'lumotlar Kompaniya veb-saytida Ommaviy oferta shartlariga kiritilayotgan o'zgartishlar kuchga kirish sanasidan kamida 15 (o'n besh) kalendar kun oldin joylashtiriladi. Bunday o'zgartirish va qo'shimchalar ular kiritilgan paytdan e'tiboran amal qiladi. Abonent kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga rozi bo'lmagan taqdirda, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan paytdan boshlab 30 (o'ttiz) kun ichida Kompaniyaga yozma ariza yuborish orqali Shartnoma shartlarini qabul qilishdan bosh tortish huquqiga ega. Ushbu holatda Abonentning rozi emasligi Shartnomaning Abonent tashabbusi bilan bir tomonlama tartibda, 7.6-bandga muvofiq bekor qilinishiga olib keladi.

7.5. Tomonlar Shartnomani uning shartlari bajarilmagan holda, Shartnomada ko'zda tutilgan tartib va shartlarda bekor qilishlari mumkin.

7.6. Shartnoma Abonentning tashabbusiga binoan bir tomonlama tartibda, Abonentning yozma ravishdagi, Kompaniya ofislariga taqdim qilingan arizasi asosida va Abonentning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning aslini taqdim qilgan holda bekor qilinishi mumkin.

Bunda Abonent, Shartnoma bekor qilinishidan oldin, Shartnoma bekor qilinish sanasida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini to'liq to'lashi shart.

7.7. Shartnoma Kompaniya tomonidan bir tomonlama tartibda quyidagi holatlarda bekor qilishi mumkin:

7.7.1. Amaldagi Kompaniyaning boshqa ma'lumot manbalarida, shu jumladan, rasmiy Veb saytida ko'rsatilgan muddat tugaganidan so'ng abonent tomonidan shaxsiy hisob to'ldirilmasa, shuningdek, Kompaniyaning rasmiy Veb - saytida ko'rsatilgan muddatdan ortiq vaqt davomida abonent bloklangan holatda bo'lgan taqdirda.

7.7.2. Agarda, Abonent Kompaniya ofisiga Ommaviy Ofertaning 3.1.3 - bandida belgilangan muddatda murojaat qilmagan bo'lsa.

7.8. Shartnomaning bekor qilinishida Tomonlar o'zlarining barcha majburiyatlari bo'yicha o'zaro hisob kitoblarni amalga oshirishlari kerak. Abonentning Shaxsiy hisob raqamida qolgan pul mablag'larining qaytarilishi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

7.8.1. Abonent Shaxsiy hisob raqamida Shartnomaning bekor qilinishi paytida qolgan pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan belgilangan muddat davomida talab qilish huquqiga ega. Agarda Abonent Kompaniyaga ko'rsatilgan muddatning yakunlanishiga qadar murojaat qilmagan bo'lsa, pul mablag'lari qaytarilmaydi.

7.8.2. Promo-balanslardan (bonus ustamalari) mablag'lar, SIM-kartani ulash (aktivlashtirish) uchun to'lov, pullik Abonentlik raqamining qiymati, shuningdek, Abonent tomonidan xarid qilingan, lekin aktivlantirilmagan to'lov Kartalarining qiymati qaytarilmaydi.

7.8.3. Pul mablag'larining qoldig'ini qaytarish Abonent tomonidan shartnomani bekor qilish/shartnoma bekor qilinganidan keyin mablag'larni qaytarish to'g'risidagi yozma ariza Kompaniyaning o'z ofislarida ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab 15 ish/bank kuni ichida amalga oshiriladi. Bunda pul mablag'larini qaytarish Kompaniya tomonidan faqat naqd pulsiz shaklda — Abonentga tegishli bank hisob raqamiga yoki bank plastik kartasiga pul o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, shartnoma bekor qilinguniga qadar va raqam terminatsiya qilinmasidan oldin mazkur Abonentga tegishli bo'lgan boshqa amal qilayotgan raqamning Shaxsiy hisob raqamiga o'tkazish orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

7.8.4. Abonent raqamini Kompaniya tarmog'idan Retsipiyentning tarmog'iga ko'chirishda abonentning shaxsiy hisob varag'ida sarflanmagan mablag'lar aniqlansa, ushbu mablag'larni qaytarish Kompaniya tomonidan Abonentning mablag'ni qaytarish to'g'risidagi yozma arizasi ro'yxatga olingan vaqtdan boshlab, Kompaniya ofislarida 30 ish/bank kuni ichida amalga oshiriladi. Bunda, Kompaniya pul mablag'larini faqat naqd pulsiz shaklda, bank hisob raqamiga yoki Abonentga tegishli bank plastik kartasiga o'tkazish yoki abonent raqami Kompaniya tarmog'idan Retsipiyentning tarmog'iga ko'chirilgunga qadar, Kompaniya bilan tuzilgan shartnoma bekor qilinishidan avval ushbu Abonentga tegishli boshqa Ucell amaldagi raqamining shaxsiy hisobiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

7.8.5. Pul mablag'larining qaytarilishi O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi so'mda, Kompaniya tomonidan belgilangan pul mablag'larini qaytarish Tartibi va amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tarzda amalga oshiriladi.

8. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

8.1. O'z majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki tegishli tarzda bajarilmaganligi uchun tomonlar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Shartnomada nazarda tutilgan hollarda javobgar bo'ladilar.

8.2. Aybdor tomon faqat ikkinchi tomonga yetkazilgan bevosita zararlar uchun javobgar hisoblanadi. Bilvosita zararlar, ma'naviy ziyon hamda qo'ldan boy berilgan foyda amaldagi qonunchilik tartibida qoplanadi.

8.3. Kompaniya quyidagilar uchun javobgar sanalmaydi:

8.3.1. Agar bu Abonent tomonidan SIM-karta/eSIM yoki Abonent qurilmasidan noto'g'ri foydalanish natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, shu jumladan sifati lozim darajada bo'lmagan va/yoki Kompaniya tarmog'i texnologiyalarini qo'llab-quvvatlamaydigan qurilmalardan foydalanilganda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lmagan va/yoki O'zbekiston Respublikasida belgilangan standartlar talablariga javob bermaydigan Abonent qurilmasidan foydalanilgan holatlarda xizmatlar ko'rsatilishi imkoniyati mavjud bo'lmashligi mumkin.

8.3.2. Abonentning buyurtmasiga asoslangan holda Kompaniya tarmog'i orqali uchinchi shaxslar tomonidan tarqatiladigan kontentning mazmuni va sifati, taqdim qilinmaganligi yoki o'z vaqtida taqdim qilinmaganligi.

8.3.3. Abonentning, tasodifiy, bevosita zarari, bilan bog'liq bo'lgan ehtimol zararlar hamda xizmatlardan foydalanishda yuzaga keladigan boshqa moddiy yo'qotishlar bilan bog'liq bo'lgan zararlar.

8.3.4. Abonentning so'roviga binoan taqdim qilingan ma'lumotning Abonentning shaxsiy kutgan natijasi va uning sub'ektiv baholariga mos kelmasligi.

8.4. Abonent o'zining SIM-kartasi/eSIM orqali amalga oshirilgan barcha hodisa va harakatlar uchun to'liq shaxsiy javobgar ekanligi haqida ogohlantirilgan hamda Kompaniya tomonidan ko'rsatilgan Xizmatlar uchun to'lov majburiyatini, shuningdek SIM-karta yoki eSIM faollashtirish kodini (shu jumladan QR-kodni) uchinchi shaxslarga berish bilan bog'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

eSIM faollashtirish kodini (QR-kodni) uchinchi shaxslarga berish natijasida uning noqonuniy sxemalarda (shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlariga ruqsatsiz kirish va trafikni noqonuniy o'tkazishda) ishlatilishi uchun javobgarlik Abonentning o'ziga yuklatiladi. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 155-2-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 278-3 va 278-7-moddalariga muvofiq, telekommunikatsiya tarmoqlariga noqonuniy (ruqsatsiz) kirish uchun maxsus dasturiy yoki apparat vositalarini tayyorlash, saqlash va ulardan foydalanish, shuningdek telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish va xalqaro trafikni belgilangan himoya tizimlarini chetlab o'tgan holda o'tkazish maqsadida tarmoqqa noqonuniy (ruqsatsiz) kirish uchun javobgarlik belgilangan.

Abonent SIM-karta/eSIM faollashtirish kodini yo'qotgan taqdirda va bu haqda mazkur Ommaviy ofertaning 3.4.3-bandiga muvofiq Kompaniyani xabardor qilgan holatlar bundan mustasno hisoblanadi.

8.5. Abonent, abonent raqami va SIM-karta/eSIM faollashtirish kodi kompaniya tomonidan faqatgina aloqa xizmatlarini ko'rsatish maqsadida taqdim etilishini tasdiqlaydi. Kompaniya telefon

aloqasini qabul qilish/uzatish va abonent raqamining ishlashini ta'minlovchi texnik ijrochi hisoblanadi. Abonent bank xizmatlari, shu jumladan shartnoma doirasida ajratilgan abonent raqamiga masofaviy bank xizmatlarini ulashga oid xavflar va Abonentning kredit tashkilotlaridagi hisob raqamlarida naqd pul o'g'irlanishi yoki noma'lum shaxslar tomonidan SIM-karta/eSIMni faollashtirish kodini almashtirish orqali kreditlar berilishiga olib kelishi mumkinligi xaqida ogoxlantirildi va tushuntirildi. Abonent, abonent raqami bilan texnologik jihatdan bog'liq bo'lgan bank xizmatlariga buyurtma berish to'g'risida qaror qabul qilganda, shu jumladan abonentga operatsiyalar to'g'risida xabar berish, parolni tiklash, boshqa tashkilotlarda identifikatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilganda, abonent zararining barcha xavfini, kredit tashkilotlaridagi hisob varaqlardan pul yo'qotilishi va ularning yo'qolishi uchun mustaqil ravishda javobgar bo'ladi va kompaniyaga zararni qoplash, ma'naviy zarar va boshqa talablarni qoplash talabidan voz kechadi. Abonent, shuningdek, abonent raqamini turli xil Internet manbalariga, shu jumladan elektron pochta, ijtimoiy tarmoq saytlari, messenjerlar va boshqa manbalarga kirish uchun identifikator sifatida ishlatganda kompaniya tomonidan yetkazilgan zarar va boshqa talablarni qoplash talabidan voz kechadi. Hisoblar va xizmatlar uchinchi shaxslar tomonidan buzilishi mumkinligi sabab, abonentga shartnoma bo'yicha ajratilgan abonent raqami bilan texnologik jihatdan bog'liq bo'lgan hisoblarni va boshqa xizmatlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun shartnoma bo'yicha ajratilgan abonent raqamidan foydalanish xavfsiz emasligi haqida xabar beriladi. Abonent to'liq javobgarlik bilan, uchinchi tomon xizmatlariga buyurtma berishi, Internetda materiallar, ma'lumotlar, hisoblar, xizmatlar va mahsulotlardan foydalanish bilan bog'liq xavflarni o'z zimmasiga oladi, ularga texnologik kirish kompaniya tomonidan taqdim etiladi. Shartnoma bekor qilinganda, Abonent ro'yxatdan o'tish, identifikatsiya qilish yoki operatsiyalarni tasdiqlash uchun foydalanilgan Abonent raqamini bank va boshqa ilovalar, servislar hamda hisob yozuvlaridan mustaqil ravishda ajratib qo'yish majburiyatini oladi.

9. QOLGAN QOIDALAR

9.1. Kompaniya uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini o'zining texnik imkoniyatlari va qamrov hududi doirasida ko'rsatadi. Abonentga taqdim etiladigan Xizmatlar aloqa qurilmasining konstruksion xususiyatlariga ko'ra, boshqa mobil va statsionar aloqa operatorlari tarmoqlarining ish sifati bilan ham bog'liq bo'lib, bu tarmoqlarga Kompaniya ta'sir ko'rsata olmaydi va ular uchun javobgar bo'lmaydi.

9.2. Abonentga taqdim etilayotgan Xizmatlar tabiiy, tabiiy-geografik va fizik sharoitlar tufayli yomonlashishi yoki to'xtatilishi mumkin. Xizmatlar sifatining yomonlashuvi yoki to'xtatilishi quyidagi holatlar oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa, Kompaniya buning uchun javobgar bo'lmaydi: radioto'lqinlarning tabiiy tarqalishi va to'qnashuvi, shovqinlar va to'siqlarning ta'siri; hudud rel'efining yoki binolar qurilishining mahalliy xususiyatlari; abonentning binolar ichida, yerto'lada, tunnellarda yoki boshqa yer osti inshootlarida joylashuvi; abonent uskunasi texnik xususiyatlari va holati; ob-havo sharoitlari hamda Kompaniyaning ta'sir ko'rsatishi yoki oldindan bilishi mumkin bo'lmagan boshqa sabablar.

9.3. Kompaniya O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining qarorlarini bajarish bo'yicha ishlarni, shuningdek, xizmatlar ko'rsatilishining sifatini vaqtincha yomonlashishi va uzilishiga olib

kelishi mumkin bo'lgan, ishlab chiqarish zaruriyati bilan bog'liq ishlarni olib borish huquqini o'z tasarrufida qoldiradi.

9.4. Abonent Kompaniya tomonidan ko'rsatiladigan Xizmatlar sifati yomonlashishi yoki vaqtincha uzilishi uchun Kompaniya javobgar emasligiga rozilik beradi, agar mobil aloqa tarmog'i ichida xizmatlarni tiklash vaqti uzluksiz 4 soatdan oshmasa. Magistral transport tarmoqlarining shikastlanishi va/yoki chekka aholi punktlari hamda yetib borish qiyin bo'lgan hududlarda bir vaqtning o'zida bir nechta bazaviy stansiyalar ishdan chiqishi bilan bog'liq avariya holatlarida, mobil aloqa tarmog'i xizmatlarini tiklashning ruxsat etilgan muddati 20 soatgacha etib belgilanadi.

9.5. USSD so'rov orqali abonent raqamidan so'ralgan ma'lumotlar maxfiy ma'lumot sanalmaydi. Kompaniya USSD so'rovi orqali taqdim etiladigan ma'lumotni, so'rov yuborilgan abonent raqami orqali Kompaniyaning Aloqa markaziga murojaat qilgan shaxslarga taqdim etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

9.6. PREPAID tizimida Shartnomaning qayta tiklanishi (Shartnomaning bekor qilinishidan keyin qayta tiklanishi) amalga oshirilmaydi.

9.7. Tomonlar yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni faqat muzokara yo'li bilan bartaraf etish uchun hamma harakatlarni amalga oshiradilar. Muzokaralar yordamida kelishmovchiliklarni bartaraf qilish imkoniyati mavjud bo'lmaganida, tomonlar O'zbekiston Respublikasi sud organlariga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tarzda murojaat qiladilar.

9.8. Ommaviy Ofertada tartibga solinmagan masalalarda tomonlar telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidolari va amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining boshqa normativ-huquqiy aktlariga, shuningdek, Kompaniyaning ichki hujjatlariga asoslanadilar.

9.9. Ushbu Ommaviy oferta bir xil huquqiy kuchga ega bo'lgan o'zbek, ingliz va rus tillarida chop etildi. Nomutanosibliklar yuzaga kelganda, o'zbek tilidagi matn ustunlikka egadir.

10. KOMPANIYA REKVIZITLARI

«COSCOM» MCHJ

Yuridik manzil: O'zbekiston Respublikasi, indeks 100031, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, V.Vaxidov ko'chasi, 118 uy.

Bank rekvizitlari:

H/r 20208000000457913001 "O'zsanoatqurilishbank" ATB operatsion boshqarmasi

MFO: 00440

STIR: 201788904

OKED 61200